



**Gulira'no ABDUG'ANIYEVA,**  
O'zFA Tarix instituti tayanch doktoranti  
E-mail: abduganiyevagulirano6@gmail.com

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida*

### PROFESSIONAL STAFF – BASIS OF THE NATIONAL ARMY (IN THE CASE OF 1991-2005)

#### Annotation

This article discusses the relationship of the Republic of Uzbekistan with foreign countries, establishing relations of military cooperation through official meetings, studying foreign experience, training qualified specialists, introducing new fundamental methods of military education, and expanding the scope of personnel training.

**Key words:** Military educational institutions, military aviation institute, military school, tank school, Electrotechnical University, special purpose school, "Ultrabalance-96", "Skopa-96 Cooperative".

### ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАДРЫ – ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОЙ АРМИИ (на примере 1991-2005 гг.)

#### Аннотация

В данной статье рассматриваются взаимоотношения Республики Узбекистан с зарубежными странами, установление отношений военного сотрудничества посредством официальных встреч, изучение зарубежного опыта, подготовка квалифицированных специалистов, внедрение новых принципиальных методов военного образования, вопросы расширения направления подготовки кадров.

**Ключевые слова:** Военно-учебные заведения, военный авиационный институт, военное училище, танковое училище, Электротехнический университет, училище специального назначения, «Ультрабаланс-96», «Кооператив Скопа-96».

### PROFESSIONAL KADRLAR – MILLIY ARMIYA ASOSI (1991-2005 YILLAR MISOLIDA)

#### Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtaida olib borilgan o'zaro aloqlar, rasmiy uchrashuvlar orqali harbiy hamkorlik munosabatlарining yo'lga qo'yilishi, xorij tajribalarini o'rganish, malakali mutaxassislarini tayyorlash, harbiy ta'limming yangi prinsipial uslublarini joriy qilish, kadrlar tayyorlash yo'nalishini yanada kengaytirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy bilim yurtlar, harbiy aviatsiya instituti, harbiy muktab, tank muktabi, Elektrotexnika Universiteti, maxsus kuchlari muktabi, "Ultrabals – 96", "Kooperativ Osprey – 96".

**Kirish.** Mustaqillikning dastlabki yillarda ko'plab milliy aholi vakillariga mansub bo'lgan ofitser kadrlarni o'z yurtlariga ketib qolishi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy kadrlar tanqisligi masalasini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mavjud muammoni hal etish yo'lida O'zbekistonda mavjud harbiy bilim yurtlari asosida qisqa muddatli ofitserlar tayyorlash kurslarini tashkil etilishi, xorijiy davlatlardagi harbiy bilim yurtlarida kadrlar tayyorlashda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yilishi, zaxiradagi ofitserlar tayyorlash tizimini qayta tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Milliy harbiy kadrlar masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, xususan, Sh.Asrakov, I.I. Inoyatovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga malakali harbiy kadrlar tayyorlashda harbiy ta'lim bilim yurtlari va ularning faoliyati, harbiy hamkorlik masalalari keng yoritilgan, A.X. Xaxyayeva tadqiqotlarida esa harbiy kadrlar tayyorlash tizimi va oliv harbiy ta'lim muassasalarining faoliyati masalalari tadqiq etilgan[1]. Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlardan farqli o'laroq, mazkur maqolada milliy kadrlarning xorijda ta'lim olishi, malaka oshirishi, harbiy mashg'ulotlarda ishtirok etishi va yangi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Istiqlolning dastlabki yillarda, xususan, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari miqdor jihatdan kam sonni tashkil etgan. Qo'shining umumiy soni 30 ming nafarga yaqin askar va ofitserdan iborat bo'lgan[2]. Bu esa shu miqdorga muvofiq harbiy qismlar, qo'shilmalar va

birlashmalarining, oliv o'quv yurtlarining, boshqa harbiy tuzilmalarining, shuningdek, boshqaruvin idoralarining shtatlarini sonini aniqlash yuzasidan ko'plab tashkiliy tadbirlar o'tkazilishini talab qilar edi.

Bundan tashqari, bu davrda milliy aholi vakillaridan iborat ofitserlar korpusi endigina shakllanayotgan bo'lib, harbiy qismarda ularning soni juda kamchilikni tashkil etardi. Shu nuqtai nazardan, o'tish davrida armyiyada "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi Qonunning ijrosini ta'minlash masalasini uzaytirilgan holda 5 yil muddatga (1997-yilgacha) o'zbek tili bilan bir qatorda rus tilini ham saqlab qolish zarur, degan fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi[6]. Shuni ham nazarda tutish lozimki, ushbu davr oralig'ida Qurolli Kuchlar tarkibida milliy tilga doir masalada faqatgina O'zbekistonda emas, balki Qozog'iston, Belarusiya, Ukraina va MDHga a'zo boshqa davlatlarda ham muammo yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin[2].

1992-1993 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun malakali ofitser kadrlar tayyorlash "Ta'lim to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlari, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining buyruq va yo'riqnomalari asosida tashkil qilindi[3]. Mazkur qonun va buyruqlarda kadrlar tayyorlash masalasi davlat uchun muhim nufuzli vazifa ekanligi belgilandi. Oly harbiy bilim yurtlari va oliv o'quv yurtlarining harbiy kafedralari zimmasiga ta'limming yangi prinsipial uslublarini joriy qilish, kursantlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'qitish, ta'lim oluvchilar bilan

doimiy ish olib borish, bilim yurtlarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, qo'shin turlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash yo'nalishini kengaytirish, oliv o'quv yurtlarining kadrlar yaratish, ularning salohiyatini yuksaltirish hamda pedagogik kasb nufuzini oshirish vazifasi qo'yildi.

1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida"gi farmoni asosida mamlakat hududida joylashgan barcha turdag'i qo'shin turlari respublika tasarrufiga olinib, ularni malakali ofitser kadrlar va mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasi belgilandi[7]. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1993-yil 21-iyundagi buyrug'i bilan mayjud oliv harbiy bilim yurtlarida ofitser kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Natijada qisqa muddat ichida yangi mutaxassisliklar bo'yicha ofitserlar tayyorlash yo'lga qo'yildi[5].

1992-yil 4-mart kuni Turkiya Parlamentining 12 nafr a'zosi O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif uyuştirdilar. Delegatsiya a'zolari: Naxit Menteshe, Xasan Basri Eler, Reken Kirish, Musafir Demir so'zga chiqdilar. Musafir Demir o'z nutqi mobaynida ushbu fikrlarni bayon etgan: "Bugun parlamentimizning 9 ta partiyasidan vakillar kelishgan. Sizda hozir ko'chalarida sobiq SSSR armiyasi askarlari va ofitserlarini ko'ryapman. O'z milliy armiyangiz bo'lishiga nima yetsin?"[2;7]. Ikki davlat parlament a'zolarining rasmiy uchrashuvlari harbiy hamkorlik masalalarini ham yo'lga qo'yilishiga asos yaratdi degan xulosaga kelish mumkin. Oradan bir oy o'tib, ya'ni 1992-yil 7-aprelda O'zbekiston va Turkiya o'rtaida tuzilgan shartnomaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarori bilan Turkiya oliv harbiy bilim yurtlariga ofitser kadrlar yuborila boshlandi.

Mazkur amaliy tadbirdilar O'zbekiston Respublikasi harbiy kadrlar tayyorlash borasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xorij tajribalarini o'rganish, malakali mutaxassislarini tayyorlash, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, harbiy kadrlarni tayyorlash va xorij tajribasini milliy armiyaga tatbiq etish masalasida Rossiya Federatsiyasi bilan ham hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1992-yil 14-avgustdag'i 133-sonli buyrug'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi kursantlari Rossiya Harbiy-havo kuchlarining harbiy bilim yurtlariga ta'lif olish maqsadida yuborila boshlandi[4]. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtaida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlilik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomma hamda 1994-yil 2-martda O'zbekiston va Rossiya o'rtaida imzolangan harbiy sohadagi o'zaro hamkorlik haqidagi shartnomma asosida Krasnodar, Sizran, Tambov Oliy aviatsiya bilim yurtlariga, Yuriy Gagarin nomli Oliy harbiy akademiyasiga, Havo hujumidan mudofaa harbiy universitetiga, Oliy aviatsiya texnikasi universitetiga o'zbekistonlik kursantlar va ofitser kadrlar bilim olish va malaka oshirish uchun yuborildi[8]. 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari bilim olish va malaka oshirish maqsadida Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari harbiy tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida yuborildi.

2002-yil o'zbekistonlik harbiy xizmatchilar yuborilgan Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari oliy harbiy ta'lif muassasalariga harbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida yuborildi.

Nº	Nomi	Joylashgan shahri
1	Penza artilleriya muhandislik instituti	Penza
2	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari Harbiy havo mudofaasi Harbiy universiteti filiali	Orenburg
3	Radiatsion, kimyoiy va biologik mudofaa qo'shnulari harbiy universiteti	Tambov
4	Krasnadar harbiy aviatsiya instituti	Krasnadar
5	Tambov harbiy aviatsiya va muhandislik instituti	Tambov
6	Sizran harbiy aviatsiya instituti	Sizran
7	Harbiy radioelektronika muhandislari instituti	Cherepovets
8	Harbiy-muhandislik universiteti filiali	Kstov
9	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining harbiy havo mudofaasi harbiy universiteti	Smolensk
10	Harbiy radioelektronika instituti	Voronej
11	Harbiy artilleriya universiteti filiali	Kazan
12	Harbiy muhandislik universiteti filiali	Sank-Peterburg

2000-2004-yillar davomida 44 nafr ofitser o'quv kurslarini tamomlagan va 2005-yil holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 152 nafr harbiy xizmatchisi (145 nafr kursant, 7 nafr ofitser) Rossiya Federatsiyasining harbiy ta'lif muassasalarida malaka oshirgan. Yuqoridaq raqamlarga ko'ra harbiy kadrlar asosan yangi yo'nalishlarda ta'lif olish va amaliyatga tadbiq etish maqsadida hamda

qisman egallangan bilimlarni yanada mustahkamlash uchun Rossiya Federatsiyasi harbiy ta'lif muassasalariga yuborilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini 2005-yilda Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborish quyidagi tartibda amalga oshirildi[4]:

Nº	Nomi	Shahri	Soni	Muddati	Ma'lumoti
1	Kirov nomidagi harbiy tibbiyot akademiyasi	Sank-Peterburg	3	2 nafari 2 yil, 1 nafari 2 oy	Ofitser
2	Burdenko nomidagi bosh harbiy klinik shifoxonasi	Moskva	1	1 oy	Ofitser
3	Radiatsion, kimyoiy va biologik mudofaa qo'shnulari harbiy universiteti	Moskva	1	4 oy	Ofitser
4	Harbiy muhandislik universiteti	Moskva	1	5 oy	Ofitser
5	Havo kuchlari akademiyasi	Moskva	2	2 yil	Ofitser
6	Harbiy aviatsiya texnikasi universiteti	Moskva	1	2 yil	Ofitser
7	Harbiy havo kuchlaridan mudofaa universiteti	Tver	1	2 yil	Ofitser
8	Temir yo'l qo'shnularining harbiy transport universiteti	Sank-Peterburg	1	2 yil	Ofitser
9	Harbiy logistika va transport akademiyasi	Sank-Peterburg	1	2 yil	Ofitser
10	Markaziy artilleriya qo'shma qurok kurslarida malaka oshirish kurslari	Sank-Peterburg	2	5 oy	Ofitser
11	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining	Smolensk	1	3 oy	Ofitser

	harbiy havo mudofaasi harbiy universiteti				
12	Krasnadar harbiy aviatsiya institute	Krasnadar	4	5 yil	Kursant
13	Tambov harbiy aviatsiya muhandislik institute	Tambov	1	5 yil	Kursant
14	Voronej harbiy aviatsiya muhandislik institute	Voronej	2	5 yil	Kursant
15	Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarining harbiy havo mudofaasi harbiy universiteti	Smolensk	2	5 yil	Kursant
16	Harbiy-muhandislik universiteti filiali	Kstov	2	5 yil	Kursant
17	Harbiy-muhandislik universiteti filiali	Sank-Peterburg	1	5 yil	Kursant

2005-yil o'quv yilida 30 nafar harbiy xizmatchi, shu jumladan 15 nafar ofitser va 15 nafar kursant Rossiya Federatsiyasi oliv o'quv yurtlariga o'qishga yuborish taklif qilingan. Ushbu yilda 57 nafar kursant Rossiya Federatsiyasi harbiy ta'lif muassasalarini tamomlagan[4].

Har tomonlama yetuk milliy armiyani zamonaviy harbiy bilimga ega milliy kadrlar bilan ta'minlash maqsadida harbiy xizmatchilarining xorijiy davlatlarda ta'lif olishi masalasida ham bir qator muammolar yuzaga keldi. Xususan, 2007-yil iyul-avgust oylari mobaynida Mudofaa vazirligi tanlov komissiyasi navbatdagi o'quv yili uchun Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining harbiy ta'lif muassasalariga yuborish uchun nomzodlarni tanlash maqsadida o'z faoliyatini boshladi. 76 nafar nomzodlarning 64 nafari oliv harbiy ta'lif muassasalarini va 12 nafari esa Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan taqdim etildi. Natijalarga ko'ra Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining harbiy ta'lif muassasalarida o'qish uchun 24 nafar nomzod tanlab olindi. Qolgan 52 nafar nomzod quyidagi sabablarga ko'ra rad etildi:

birinchidan, shartnomalar bilan tanishib chiqqandan so'ng ota-onalar tomonidan rad etilganligi; (Komissiya yig'ilishiga saralangan nomzodlarning ota-onalar ham taklif etilgan. Bu o'z navbatida komissiya ishini shaffof tarzda o'tkazilishini ta'minlagan.)

ikkinchidan, rus tilini bilish darajasi pastligi sababli; uchinchidan, yosh ko'rsatkichlari nomutanosibligi sababli;

to'rtinchidan, oilaviy ahvoliga ko'ra[4].

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan AQSH va Yevropaning qator mamlakatlari harbiy muassasalarini o'rtaida mustahkam amaliy munosabatlar o'rnatildi. Bu hamkorlik shaxsiy tarkib tayyorgarligini mukamallashtirish, ilg'or tajribalarini almashish, qo'mondonlik, kadr va shtablar tezkor tayyorgarligini takomillashtirishda yordam berdi. Jumladan, 1995-2002-yillar davomida Yevropa xavfsizlik markazida mudofaa siyosati sohasida malaka oshirish maqsadida Germaniyaning Garmish-Partenkirken shahri harbiy maktabi, Germaniya Federativ Respublikasi Bundesverining tank maktabi, Elektrotexnika Universiteti, maxsus kuchlari maktabiga ta'lif olish maqsadida yuborildi[4]. Bundan tashqari, nemis tili o'qituvchilarini malakasini oshirish masalasida ham amaliy ishlar amalgalashirildi[4].

Shu bilan bir qatorda, 1995-1999-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtaida Xalqaro harbiy ta'lif va tayyorgarlik (IMET) dasturi bo'yicha harbiy xizmatchilar bilim olish va tajriba almashinish maqsadida Amerika Qo'shma Shtatlaring Montgomeri, San-Antonio, Gordon, Monterey, Fort-Ruker shaharlari joylashgan harbiy ta'lif muassasalariga yuborilgan. Dastur doirasida xalqaro menejment va harbiy yordam kurslarida ta'lif olish, harbiy ta'lif muassasalarining chet tili fani o'qituvchilarini uchun malaka oshirish hamda boshqa yo'naliishlarda tajriba almashish imkoniyati yo'lga qo'yildi. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin[4].

Bundan tashqari, o'zaro hamkorlik aloqalari harbiy mashg'ulotlar, musobaqlar bilan yanada mustahkamlangan. Jumladan, 1996-yil AQSHning Shimoliy Karolina sharti Kemp-Lejundagi dengiz piyodalarining harbiy bazasida

o'tkazilgan harbiy mashqlarda NATOGa a'zo 16 ta mamlakat ishtirokida "Kooperativ Osprey - 96" harbiy mashg'ulotlar olib borildi. Ushbu mashg'ulotlar Markaziy Osyo davlatlari harbiy xizmatchilarining bu doiradagi tadbirlarda ilk ishtiroki ekanligi bilan ahamiyatli. Ko'pgina davlatlardan kelgan harbiy kuzatuvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilar namoyish etgan yuksak mahorat ijobiy e'tiroflarga munosib ko'rildi[1]. Ushbu mashg'ulotlarning mantiqiy davomida sifatida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tinchlik yo'lida xalqaro harbiy mashqlarda faol ishtirok etdi. Jumladan, "Kooperativ banners - 97", "Kooperativ nagget - 97", Shimoliy Karolinada o'tkazilgan "Kooperativ osprey - 98" va boshqa bir qator musobaqlarini misol tarzida keltirish mumkin.

Ushbu hamkorlik aloqalari O'zbekiston hududida ham davom ettirildi. Xususan, 1996-yil sentabrda "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida "Ultrabalans - 96" qo'shma o'zbek-amerika taktik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi[4]. Farg'onada o'tkazilgan "Ultrabalans - 98" va "Markaziy Osyo qismi - 97" harbiy mashqlarida ushbu hamkorlik aloqalari davom ettirildi[5].

**Xulosa.** Mustaqillik yillardining dastlabki davrida harbiy ta'lif tizimida kadrlar tayyorlash masalasi ayrim ziddiyatlari holatlar bilan birlgilikda kechdi. Bu esa milliy kadrlar sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarida malakali mutaxassislarga bo'lgan talab yangi olyi harbiy ta'lif muassasalarini tashkil etish va xorijiy davlatlar bilan keng harbiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish yo'li bilan amalga oshirildi. Ushbu amalga oshirilgan ishlar quyidagi natijalarni qo'lga kiritilishiga olib keldi:

birinchidan, sovet davrida Markaziy Osiyodan xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilar asosan quruqlikdagi qo'shinlarda xizmat qilishga jalb etilgan. Bu esa ushbu mamlakatlarda harbiy sohalar qamrovi tor doirada shakllanishiga sabab bo'lgan. Ushbu muammoni hal etishda xorijiy davlatlar bilan aviatsiya, havo hujumidan mudofaa, radiotexnika, va boshqa mutaxassisliklarni rivojlantirish borasida keng hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Bu esa kadrlar tayyorlash yo'naliishini kengaytirish natijasida soha yo'naliishlarining yanada rivojlanishiga olib keldi;

ikkinchidan, XXI asrda keskin avj olayotgan turli nizolar mamlakat mudofasini ta'minlash maqsadida chet el armiyalari tajribalarini izchil o'rganishni taqazo etmoqda. Bu esa hamkorlik musobaqlarini orqali Qurolli Kuchlar imkoniyatlarini xolis sarhisob qilish imkoniyatini yuzaga keltirdi;

uchinchidan, turli xil ob'ekt va vaziyatlarda mamlakat mudofasini ishonchli va talafotlarsiz ta'minlash, tajriba orttirish, hamkorlik o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etish hamda olingan tajribani amaliyotga tadbiq etishda xalqaro hamkorlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi;

to'rtinchidan, o'zbekistonlik harbiy xizmatchilar epchillik, chidam va mahorat bobida hech kimdan kam emasliklari, kerak bo'lsa ustun ekanliklarini bugungi kunda o'tkazilayotgan turli harbiy musobaqa va xalqaro armiya o'yinlarida ko'rsatayotgan natijalari bilan isbotlab kelishmoqda. Ushbu yutuqlarda xorijiy hamkorlik aloqalarining ham salmoqli hissasi bor ekanligini ta'kidlash joiz.

**ADABIYOTLAR**

1. Асраров Ш. Олий таълим замон талаби даражасида. Ватан ҳимояси муқадда бурч. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2001; Иноятов И.И. Ҳарбий ҳамкорлик. Ватан ҳимояси муқаддас бурч. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2001; Яхъяева А.Х. “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг шаклланиши ва ҳарбий таълимнинг ривожланиш тарихи” (1991-2005 йиллар Мудофаа вазирлиги мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. (PhD). Тошкент. 2022.
2. O'zbekiston Milliy arxiv (O'zMA), M-69 - fond, 1-ro‘uxat, 110-yig‘majild.
3. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёт пойдевори. Тошкент. 1997. –Б. 20-29; Ўзбекистон Республикаси “Мудофаа тўғрисида”ти Қонуни (янги таҳрири). Тошкент. 2001; O'zMA, M-69 - fond, 1-ro‘uxat, 110-yig‘majild, 141-142-varaqlar; <https://lex.uz/docs/-48401>
4. O'zbekiston Mudofaa vazirligi davlat arxiv (O'zMVDA), 45-fond, 67399 - ro‘uxat, 2-yig‘majild.
5. O'zbekiston Qurolli Kuchlari (o‘tmishda va hozirda). Mualliflar: X. Sodiqov, B. Yo‘ldoshev, I. Inoyatov. Toshkent: “Tafakkur qanoti”. 2014.
6. <https://lex.uz/docs/-109394>
7. <https://lex.uz/docs/-795410>
8. O'zMA, M-37 - fond, 1-ro‘uxat, 111-yig‘majild, 10-varaq; [https://www.mid.ru/ru/foreign\\_policy/international\\_safety/1706705/](https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/international_safety/1706705/)



**Shohsanam AYUBOVA,**

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: shohsanamayubova@gmail.com

NamDU dotsenti, T.f.n. Z. M. Madraximov taqrizi asosida

## SAMARQANDNING REGISTON ANSAMBLIDAGI BEZAKLARNING RAMZIY MA'NOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Samarqandning Registon ansamblini xususan, Sherdor madrasasidagi tasviriy va amaliy bezak namunalarining ramziy manolari haqida so'z boradi. Shu bilan birga Sharq tasviriy san'atida keng tarqalgan "sher va quyosh" simvoli tarixi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ramzlar, ramzlarning ma'nolari, Ulug'bek madrasasi, Tillakori madrasasi, Sherdor madrasasi, Yalangto'sh Bahodir, "sher va quyosh" simvoli, registon ansamblisi.

## СИМВОЛИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ УКРАШЕНИЙ В РЕГИСТОННОМ АНСАМБЛЕ САМАРКАНДА

Аннотация

В данной статье говорится о символическом значении примеров визуального и практического оформления в ансамбле Регистан Самарканда, в частности, в медресе Шердор. Одновременно приводятся сведения об истории символа «лев и солнце», широко используемого в изобразительном искусстве Востока.

**Ключевые слова:** Символы, значения символов, медресе Улугбека, медресе Тиллакори, медресе Шердор, Ялангтош Бахадир, символ «лев и солнце», ансамбль регистон.

## SYMBOLIC MEANING OF DECORATIONS IN THE REGISTON ENSEMBLE OF SAMARKAND

Annotation

This article talks about the symbolic meanings of the examples of visual and practical decoration in the Registan ensemble of Samarkand, in particular, in the Sherdor madrasa. At the same time, information is provided about the history of the "lion and sun" symbol, which is widely used in the visual arts of the East.

**Key words:** Symbols, meanings of symbols, Ulugbek madrasa, Tillakori madrasa, Sherdor madrasa, Yalangtosh Bahadir, "lion and sun" symbol, registon ensemble.

**Kirish.** Qadimdan ajodolarimiz yashayotgan maskanlariga, devoru toshlariga, idish tovoqlariga ov jarayonlari, jangu jadallar, bazmlar, tan- tana marosimlarini ifodalab, turli hayvon, kush hamda o'simlik va naqshlar bilan bezab kelganlar. Bundan tashqari bezaklarning yanada ga'sirchan kuchini oshirish uchun xalq hikmatlari, ulug' allomalarining pand-nasihatlari, turli ramziy ma'noda ifodalab kelganlar. Ular go'zallikni yaxshi ko'rganlar. Shuning uchun go'zallik orqali insonlarga voqeqliklarni tezroq yetkaza olganlar.

Bulardan tashqari fikr almashuv vositasi sifatida ramziy ifodalar, muayyan shakl va belgilarning muomalaga kiritilishi natijasida yozuv kelib chiqqanligi qadimdan ma'lum.

Shuning uchun ham birinchi prezident Islom Karimov "Milliy timollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir" [1] deb ta'kidlab o'tgan edi.

Xo'sh, ramz nima? "Ishora qilmok" so'zidan olingan bo'lib tabiatni, voqealikni, hayotdagi quvonch va tashvishlar, do'st va dushman, ezzulik va yovuzliklarni chiziq, rang va shaklliar orqali ifodalashdir.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimdan naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekan-ki, ustalar chizgan va bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlikda bezaklarning tilini bilish uchun naqshlarni o'qish tili alifbosini yaxshi bilishni talab etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirda ramziylik haqida va naqshli bezaklarning o'qish alifbosini qiyomiga yetkazib tuzilmaganligi, "Ramziylik lug'ati" hamda "ramzlar

ensiklopediyasi" O'zbekistonda tuzilib chop etilmaganligi, ko'pgina qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chet ellarda esa deyarli amalga oshirilib bo'lingan.

Shunga qaramay, ramzshunoslik sohasida Dilrabdo Mingboebaning "Timsolilar tilsimi" [2], Saidaxbor Bulatovning "Rangshunoslik" [3], M. C. Saipovaning "Ramzshunoслик" [4] singari kitoblarining yaratilganligini aytib o'tish lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Registon ansamblidagi tasviriy bezaklarning ramziy va falsafiy ma'nolariga bag'ishlangan materiallar sinxron, muammoviy-xronologik, qiyosiy-tarixiy usullarga tayangan holda tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Dunyoga eng ko'hna shaharlardan biri Samarqandning markaziy maydoni hisoblangan Registonda savlat to'kib turgan madrasalarga bir nazar solaylik. Uning peshtoqlari, bahaybat gumbazlari va chiroyli minoralari, rang-barang sirli koshinlari hamda nafisligi, hashamatli, jumjimadorligi kishini hayratga soladi. Registon ansambli boshqa me'moriy yodgorliklar singari o'z mazmuniga va tarixiga ega.

Registon so'zi forschanan – "mayda tosh to'shalgan joy" yoki "qum bilan qoplangan joy" degan ma'noni anglatib, O'rta Sharq mamlakatlari shaharlariagi markaziy maydon, turli maqsadlarda odamlar to'planadigan joy bo'lgan. Registon ko'p hollarda shahar arki yoki hokimlar saroylari yonida barpo etilgan hamda ular ma'muriy siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Samarqandagi Registon maydoni Ulugbek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori masjid-madrasasi kabi me'moriy obidalardan iborat bo'lib, Samarqand me'morlari ijodining nodir namunasi hisoblanadi. Bu ulug' zaminda necha-necha

mutafakkir, ziylolar, allomalar, pirlar, ustozu shogirdlar, olimlar qadamining izi bor. Uch muborak madrasalarning har biri me'morchiligidan durdonalari bo'lib xisoblanadi. Registon ansamblining hozirgi qiysofasi XV – XVII asrlar oralig'ida shakllangan. Jumladan, Ulug'bek madrasasi – 1417-1420-yillarda temuriy hukmdor, astronom olim Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo ettirilgan bo'lsa, Ashtarkoniyalar davrida Samarqand hokimi bo'lgan Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619 – 1636-yillarda Sherdor, 1646 – 1660-yillarda Tillakori masjid-madrasasi barpo ettirilgan.

Shu uch madrasaning ichida Sherdor madrasasi tasviriy bezaklariga boyligi bilan ajralib turadi. Sherdor madrasasi Usta Mulla Abdujabbor me'mor va naqqosh boshchiligidan qurilgan va bezatilgan. Me'mor oldiga Baxodir Yalangtush hech bir narsada o'zining ulug' ajdodlaridan qolishmasligini naqshli bezaklar orqali xalqqa yetkazish vazifasini qo'yan. Naqqosh ulkan peshtoq ravoqi tepasidagi bezak orqali masalani hal qila olgan.

Me'mor madrasa peshtoqiga quyidagi she'rni jimp Jimador qilib yozib bezagan:

"Shijoatli amir Yalangtush odil, Kamolin madhida durlar sochar til: Yer nuktasin osmon avjidan avfo- Ko'tarib madrasa ettirdi bino, Yeru ko'k ziynatin bo'ldi yalovi. Tokisi kamolot, akl o'lchovi. Ko'p tirishib, ilmdan boglab ham Akning lochini yecholmas, hayxot! Minora uchiga tashlab

Nº Tasvirlar tafsifi

1. Saljuqiylar sultoni Kayhusrav II ning tangasi (1237-1246 yy)

2. Elxoniylar davlati ramzlaridan biri. Eron. (XIV asr boshlari)

3. Boburiylar hukmdori Jahongirshoh tangasi. (1611-yil)

Go' liston saroyi peshtoqi, Qajarlar sulolasi (Eron)

ham kamand, Fikrning darvozi chikolmas qanot, harchand. Toqiga muhandis berganda oroy, Osmon barmoq tishlab, dedi: "Yangi oy!" Yalangtush Bahodir quyganchun asos, "Yalangtush Baxodir" - tarixiga mos".

Madrasa ikki qavatlari. Bosh tarzidagi peshtoqning yoniga guldastra ishlangan. Peshtoq ichkarisiga koshinkori bezak orasida qora zominli koshinga oq harflar bilan me'mor Abujabbor nomi yozilgan.

Madrasa peshtoqi simmetrik qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg'ish-zarxal sher nozik oq oxuni kuvib ketayotgani tasvirlangan. Odam qiyofali quyosh zarhal yog'du bilan xoshiyalangan. Ular atrofiga naqshu nigorlar chizilgan.

Klassik musulmon astronomiyasida quyoshning Asad burjida, ya'ni Sher ro'barasida bo'lishi sa'd zamon, ya'ni bahtiyor zamonga ishoratdir. Bundan yana mazkur madrasaning hijriy 1028-yilda, milodiy 1618-yil iyul oyida bitkazilganligini anglasa ham bo'lgadi.[5]

Arslon va quyosh ramzining tarixiga nazar solsak, bu ramz bиринчи bo'lib turkiy saljuqiylardan (XII asr) kelib chiqqan. Bu belgi turkiy saljuqiylar sulolasi tangalarida topilgan, undan Elxoniylar (Xulokuylar), keyinchalik Amir Temur va uning avlodlari, xususan, Boburiylar tomonidan ham qo'llanilgan [6]. Haqiqatdan ham bu musolmon astrologiyasidagi ramziy belgi bo'lgan. Quyidagi jadvalda ularning ayrimlarini berib o'tamiz:

Tasvirlar



sohibqironning uchta iqlim – shimol, janub va g'arbda podishohlik qilishiga ishora bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu belgi quyosh ramzi hisoblanadi. Quyosh – Amir Temur tasavvurida tangri taolo yaratgan eng buyuk mo'jizadir [8].

"Samarqandlik olim Abu Toxirxo'ja XIX asrning 30-yillarida yozgan "Samariya" kitobida Sherdor madrasasi peshtoqidagi tasvirlarni bir oz boshqacha talqin qiladi. U tasvir mazmunini musulmon astrologiyasida keng tarqalgan

osmondag'i yulduz burjlari bilan bog'lab ta'riflaydi. Abu Tohirxo' janing aytishicha, xurshid quyosh shakli Sher burji (yulduzlar turkumi) bilan qo'shilib ketgan oxuni tutmoqchi bo'lgan Sher hamlasini quyosh nurlarining tig'i qaytarmoqda[5]. Go'yoki nur-ziyo ofatni dars etmoqda. Har holda, ijodkorlar chuhur g'oyaviy fikrni ramziy ma'noda berishgani ko'rinib turibdi.

Haqiqatdan ham Sherdor madrasasi peshtoqidagi bezatilgan naqsh kompozitsiyasining qiyomiga chiqib talqin qilib berilmagan. Chunki naqshni o'qish tili alifbosini bizgacha yetib kelmagan. Hozirda esa naqshlarni tili alifbosini

tuzilmagan. Shuning uchun naqshlarni o'qish masalasi muammo bo'lib kelmoqda.

Arslon burji yulduzlar turkumining beshinchchi belgisi bo'lib, sherning ramzi bilan ifodalanadi. 23-iyuldan 22-avgustgacha tug'ilganlarning burji arslon hisoblanadi. Musulmon san'atida bu bilan inshootlarning tugallangan vaqtini majoziy ifodalash uchun ham qo'llanilgan. Ikkinchchi tomondan Yalangto'sh Bahodirning burji arslon bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Uning harakteri va taqdiri ham shunga bog'liq bo'lgandir.



Yuqorida ayrib o'tilganidek, ko'plab sharg mamlakatlarining tasviriy va amaliy bezak san'atida quyosh va sherning birgalikda tasvirlanishi holatlari uchraydi. Ammo, ularning hammasi bir xil ma'noni kasb etavermaydi. Ayniqsa, Sherdor madrasasidagi tasvir o'ziga xos ma'no kasb etadi. Madrasa peshtoqidagi tasvirlarning ramziy ma'nolarini olim Saidaxbor Bulatov quydigicha bayon qiladi:

Tasvirda epchil, kuchli, yengilmas yo'lbarsimon Sher orqali ramziy ma'noda Yalangtush Baxodirga ishora qilingan, unga muqoyosa qilib kuchsizlik, nimjonlik ramzi tariqasida ohu tasvirlangan. Aslida hayotda sherboshli yo'lbars bo'lmaydi. Kompozitsiya ramziy olingan.

Tasvirdagi Sherning boshi – kuchlilik va donolik ramzi, Yo'lbars tanasi – epchillik ramzi, Sherning oyoqlari – mustahkam kuchga va ajdodlarining katta ma'naviy hamda moddiy asosga egaligi, sherning qulog'i – hushyorlik ramzi, sherning tishi – tafakkurning o'tkirligi, Sherning erkagi – hokim Bahodir Yalangto' sh qiyoslangan, Sherning badanidagi qora chiziq va oq nuqtalar – hayot yovuzlik va ezzulikdan iborat ekanligi, sherning dumti – ulug'vorlik ramzi, Ohu – kuchsizlik ramzi, Quyosh – hayot, yorug'lik, jo'shqin hayot, Quyosh nuri – nur, ziyo, ya'ni ma'rifat, bilim tarqatuvchi Ollohamma narsani ko'rguvchi va bilguvchidir. Ollohamma guvohdir degan ramziy ma'noda tasvirlangan, Inson qiyofasi – yoshlik, kuchlilik va go'zallik ramzi, qora soch – moddiy va ma'naviy boylik, Sochning gajagi – uzoq yillik kurashlar, yanoqdagi xol – ona tabiat, tabatning go'zalligi, nozi-ne'matlardan diyori ekanligini anglatadi. Islimiya naqshlar:

zarxal rangli gular – go'zallik ramzi. Go'zal hayot, ya'ni "Ollohamma go'zallikni yaxshi ko'radi. U go'zaldir", Oq gular – pokizalik ramzi, Havo rang – Koinot, olamning cheksizligi, tinchlik va yomon ko'zdan asrash ramzidir[9].

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Sharq tasviriy va amaliy bezak san'atidagi har bir tasvir, belgi, har bir rang o'ziga hos ma'no kasb etadi. Ayniqsa, Samarqandning Registon ansamblidagi bezak namunalari yurtimiz tarixni va madaniyatini o'rganishda muhim o'rinnegallaydi;

Ikkinchidan, Sherdor madrasasi peshtoqidagi Arslon va quyosh ramzi saljuqiyilar, elxoniyilar, temuriylar, boburiyilar, Erondag'i Qojarlar sulolasiga tasviriy san'atida uchrasha ham ularning har biri qo'shimcha tasviriy elementlar bilan birgalikda o'z hududining o'ziga hos madaniyatini ramziy ifodalaydi.

Uchinchidan, Sherdor madrasasidagi tasvirda epchil, kuchli, yengilmas yo'lbarsimon Sher orqali ramziy ma'noda Yalangtush Baxodirga ishora qilingan, unga muqoyosa qilib kuchsizlik, nimjonlik ramzi tariqasida ohu tasvirlangan.

Umumiy xulosa sifatida mamlakatmizda joylashgan tarixiy obidalarimizni bezab turgan tasviriy va amaliy bezak namunalarini shunchaki jumjimador tasvir sifatida bilmay, balki ularning tilini, ya'ni ramziy va falsafiy ma'nolarini tushunishimiz milliy qadriyatlarimizni yanada chuqurroq anglashimizga ko'mak beradi.

### ADABIYOTLAR

- Nazarov Q. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasi. (o'quv qo'llanma) – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti, 2013. – B. 164.
- Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими: тимсоллар тавсифи ва таржималар (2 китоб). – Тошкент: "Adabiyot" нашриёти, 2022. - 280 б.
- Bulatov S. S. Rangshunoslik (Darslik). – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2009. – 160 b.
- Саипова М. С. Рамзшунослик. (Дарслик). – T.: "Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа", 2021.
- Абу Тохирхозя Самаркандий. Самария (Масъул мухаррirlar: Садриддин Айний ва Б. А. Ахмедов) – T.: Янги аср авлоди, 2016. – B. 27.
- ЛевиСолнце//<https://www.wikiwand.com/ru/%D0%9B%D0%85%D0%B2%D0%8B%D0%88%D0%A1%D0%BE%D0%BB%D0%BD%D0%86%D0%B5> [Murojaat qilingan sana: 14.08.2024]
- Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403 – 1406). Пер. со староиспанского, предисл. и comment. И.С. Мироковой. – М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1990. – B.103.

8. Ақбаров Р. Байроқлар тарихига бир назар... / Тарих тилга кирганда... (Илмий мақолалар түплами). 2016 йил, №.8.  
– Наманган. – 267-270 б.
9. Булатов С. С. Темурийлар давридаги безакларнинг фалсафий ғояси // Тарих. (Илмий-оммабоп журнал) №. 3, 2003.  
– .15-20 б.



Gulmira KATTAYEVA,

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Odiljon XAMIDOV,

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: [kattayevag@tersu.uz](mailto:kattayevag@tersu.uz), [odiljonkhamidov@tersu.uz](mailto:odiljonkhamidov@tersu.uz)

Termiz davlat universiteti professori, t.f.d. Sh.Shaydullayev taqrizi asosida

**NEW RESEARCHES ON THE OXUS CIVILIZATION PUBLISHED IN 2023: PART 3.2. (EXAMPLE OF PROCEEDINGS OF THE 12 TH INTERNATIONAL CONGRESS ON THE ARCHAEOLOGY OF THE ANCIENT NEAR EAST)**

Annotation

It is scientifically analyzed information about articles which are devoted the Building Technologies, X-Ray Fluorescence Analysis of Metallic Items, and Conservation, Restoration and Reconstruction of the Bronze Age Paintings with Mosaic Inlays from Gonur Depe that is considered one of the earliest urban centers of Oxus civilization that were published in the "Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East" in this article.

**Key words:** Oxus civilization, Gonurtepe, historiography, Building Technologies, X-Ray Fluorescence Analysis, paintings.

**НОВЫЕ РАБОТЫ ПО ИСТОРИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ ОКСА ОПУБЛИКОВАННЫЕ В 2023 ГОДУ: ЧАСТЬ 3.2.  
(НА ПРИМЕРЕ "МАТЕРИАЛЫ 12-ГО МЕЖДУНАРОДНОГО КОНГРЕССА ПО АРХЕОЛОГИИ ДРЕВНЕГО  
БЛИЖНЕГО ВОСТОКА")**

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы консервации, реставрации и реконструкции мозаичных росписей, рентгенофлуоресцентный анализ металлических предметов, исследование технологий строительства поселения Гонур-Депе, считающихся одним из первых городских центров цивилизации Окса, опубликованных в материалы «12-го Международного конгресса по археологии Древнего Ближнего Востока».

**Ключевые слова:** Цивилизация Окса, Гонур-Депе, историография, Строительные технологии, Рентгенофлуоресцентный анализ, картины.

**OKS SIVILIZATSIYASI BO'YICHA 2023-YILDA NASHR ETILGAN YANGI TADQIQOTLAR: 3.2.-QISM  
(“QADIMGI SHARQ ARXEOLOGIYASI BO'YICHA 12-XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI”  
TO'PLAMI MISOLIDA)**

Annotation

Ushbu maqolada “Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-Xalqaro Konferensiya materiallari” to'plamining birinchi qismida Oks sivilizatsiyasining ilk shahar markazlaridan biri hisoblangan Gonurtepa yodgorligining mozaik naqshli rasmlarini saqlash, tiklash va rekonstruksiyalash masalalari, metall buyumlarining rentgen-fluoretsent tahlili, manzilgohning qurilish texnologiyalari haqidagi tadqiqotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oks sivilizatsiyasi, Gonurtepa, tarixshunoslik, qurilish texnologiyalari, metall buyumlarining rentgen-fluoretsent tahlili, rasmlar.

**Kirish.** Oks sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo hududida shakllangan eng qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, xronologik jihatdan mil.avv. III ming yillikning birinchi yarmidan II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan davrlashtirilgan[6].

So'nggi yillarda Oks sivilizatsiyasini ilmiy, tarixiy va arxeologik jihatdan o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda. Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12 - Xalqaro Konfrensiyasi (ICAANE- International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East) – 2021-yil 6-9-aprel kunlari Italiyaning Bolonya shahrida o'tkazilgan bo'lib, 548 ta ma'ruzalar eshitildi (ma'ruza, poster, davra suhbatlari). Konferensiya to'plami ikki jilda nashr etilib[1], unda jami 142 ta maqolalar kiritilgan. Konferenesiya to'plamining ikki jildi sakkizta ilmiy yo'nalishdagi maqolalarni o'z ishiga olgan. Bular: dala hisobotlari (so'nggi qazishmalar va tadqiqotlar natijalari); atrof-muhit arxeologiyasi; moddiy dunyonni tanish (moddiy madaniyat, jarayonlar va texnologiyalarning tavisi); kognitiv arxeologiya (ramziy va vizual aloqa tarmoqlari va tuzilmalarini o'qish); o'tmishni modellashtirish. Iqtisodiyot va jamiatlar arxeologiyasiga zamonaviy nazariy yondashuvlar;

tarmoqli arxeologiya (yangi mingyillikda global muammolar va hamkorlikdagi tadqiqotlar); yo'qolib ketish xavfi ostida turgan madaniy meros. Muvoqiflashtirilgan ko'p tomonlama tadqiqotlar, tabiatni muhofaza qilish va rivojlanish strategiyalari; Islom arxeologiyasi (Chuqur o'tmish va zamonaviylik o'rtasidagi uzuksizlik va uzilishlar).

“Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-xalqaro Konferensiya materiallari” to'plamining birinchi jildi[1] da Qadimgi Sharq arxeologiyasi va tarixiga oid jami 73 ta maqola chop etilgan, shulardan 6 tasi Oks sivilizatsiyasiga oid. Ushbu maqolalarda Oks sivilizatsiyasining tarkibiga kiruvchi Janubiy Turkmaniston hududida, bronza davriga oid Marg'iyona madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Gonurtepa yodgorligining mozaik naqshli rasmlarini saqlash, tiklash va rekonstruksiyalash masalalari, metall buyumlarining rentgen-fluoretsent tahlili, manzilgohning qurilish texnologiyalari haqida juda qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-Xalqaro konferensiya materiallari” to'plamida jami 73 ta maqola chop etilgan bo'lib, ularning 6

tasi Oks sivilizatsiyasi masalalariga bag'ishlangan. "Oks sivilizatsiyasi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 3.1-qism ("Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-xalqaro konferensiya materiallari" to'plami misolida) da dastlabki 3 ta ilmiy tahlil qilingan bo'lsa, ushbu maqolada quyidagi 3 ta maqola ilmiy tahlil qilingan. Jumladan, R.Satayev, L.Satayeva va N.Dubova hammullifligida nashrdan chiqqan "Saroy qismini o'rganish asosida Gonur Depe (Turkmaniston) bronza davri manzilgohida qurilish texnologiyalari" ("Building Technologies at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan) on the Basis of the Study of Its Palace") [3], A.A.Tishkin, N.A.Dubova va N.N.Seregin hammullifligida nashrdan chiqqan "Gonurtepa arxeologik kompleksidan aniqlangan metall buyumlarining rentgen-fluorescent tahlili natijalari (Turkmaniston)" ("Results of X-Ray Fluorescence Analysis of Metallic Items from the Archaeological Complex of Gonur Depe (Turkmenistan)") [4], G.E.Veresotskaya, N.A.Kovaleva, M.A.Mamedov, N.A.Dubova, va J.S. Karanova hammullifligida nashrdan chiqqan "Gonur Depe, Turkmanistonning bronza davriga oid mozaik naqshli rasmlarini saqlash, tiklash va rekonstruksiya qilish" ("Conservation, Restoration and Reconstruction of the Bronze Age Paintings with Mosaic Inlays from Gonur Depe, Turkmenistan") [5] kabi maqolalar shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar.** Birinchi maqola R.Satayev, L.Satayeva va N.Dubova hammullifligidagi "Saroy qismini o'rganish asosida Gonur Depe (Turkmaniston) bronza davri manzilgohida qurilish texnologiyalari" ("Building Technologies at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan) on the Basis of the Study of Its Palace") [3] nomli maqola bo'lib, unda Qadimgi Marg'yonanining ma'muriy-diniy markazi hisoblangan Gonurtepa yodgorligining monumental binolari va ularning qurilish arxekturasi haqida ilmiy-tahliliy ma'lumotlar arxeologik dalillar va radiakarbon tahlil natijalari orqali umumlashtirilgan.

Gonurtepa yodgorligining umumi maydoni 70 gektardan oshadi, madaniy qatlama qalinligi esa 5 m dan ortiq. Yodgorlik ko'plab monumental inshootlarni o'z ichiga oladi va ikkita asosiy qismdan iborat: Shimoliy va Janubiy Gonur. Shimoliy Gonur ma'muriy va madaniy markaz hisoblangan. Uning g'arbida "Katta nekropol" va sharqida "Shoh nekropol'i" joylashgan. Janubiy Gonurda "temenos" deb nomlangan kichik ibodatxona majmuasi bo'lgan. Bu yerda kichik qabriston ham bor edi. Shimoliy Gonur markazida saroy - hukmdor va uning oilasining qarorgohi joylashgan. Saroy ma'muriy idolar, xo'jalik binolari, hukmdorning qarorgohi "Dafn marosimi majmuasi" va boshqa binolarni o'z ichiga oladi. Bu binolar minoralar bilan mustahkamlangan mustahkam devor bilan o'ralgan. Saroy devorining orqasida butun perimetri bo'ylab ikki qator devorlar bilan o'ralgan diniy binolar mavjud bo'lib, ularning orqasida turli vazifani bajaruvchi binolar, shuningdek, suv saqlash uchun hovuzlar bor bo'lgan. Ushbu tuzilmalar past balandlikdagi to'siq bilan o'ralgan edi. Janubiy Gonur ibodatxonalar majmuasi Shimoliy Gonur me'moriy majmuasidan janubga 350 m uzoqlikda joylashgan. Gonur aholisi hayotida oziq-ovqat ishlab chiqarishdan tashqari hunarmandchilik ham muhim o'rinn tutgan: qurilish, kulolchilik, metallga ishlov berish, yog'ochga ishlov berish, tosh va suyakka ishlov berish, teri va to'qimachilik ishlab chiqarish. Qadimgi quruvchilar turli xil texnika va qurilish materiallari foydalanganlar: quruvchilar tomonidan qo'llanilgan bu usullar Gonur saroyida eng yaqqol ko'rinadi. Xususan, maqolada, binolarni qurilishida ishlatilgan turli xil xomashyolar, masalan, taxta g'ishtlar, katta taxta

bloklari, pishgan g'ishtlar, turli xil yog'ochlar va ularning bronza davri arxekturasida tutgan o'mi haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Bino devorlari asosan loy g'isht yoki bloklardan qurilganligi, taxta g'ishtlari turli o'cham va tarkibga ega bo'lganligi va g'isht ishlab chiqarish uchun asos qumli loyga o'xshash mo'rt lyoss tuprog yoki qumli loyga o'xshash zich lyoss tuprog'i ekanligi mualliflar tomonidan ta'kidlangan. Pishirish massasiga qo'shilgan somon miqdori va uni aralashtirish intensivligi g'ishtning mustahkamligiga qo'yiladigan talablar bilan aniqlanganligi, tashqi devorlar uchun sifati past somonli g'isht ishlatilishi, somonning ulushini oshirish zichlikni pasaytirib, materialning og'irligini oshirishi, tom yopish uchun uzun terak shoxlari ishlatilganligi ilmiy tahlil qilingan.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash mumkinki, Gonur saroyini g'isht va bloklardan qurilgan bo'lib, ba'zi hollarda, ular xomashyo massasi tarkibidan farq qilishi mumkin bo'lgan. G'ishtlar massasining asosi lyoss tuprog'i yoki loyi hisoblanib, strategik nuqtai nazaridan eng muhim binolar pishgan g'ishtdan qurilgan. Tadqiqotchilardan keying maqolalarida bu haqidagi ma'lumotlarni kengroq yoritishini kutib qolamiz.

Ikkinci maqola A.A.Tishkin, N.A.Dubova va N.N.Seregin hammullifligidagi "Gonurtepa arxeologik kompleksidan aniqlangan metall buyumlarining rentgen nurlari floresan tahlili natijalari (Turkmaniston)" ("Results of X-Ray Fluorescence Analysis of Metallic Items from the Archaeological Complex of Gonur Depe (Turkmenistan)") [4] nomli maqola bo'lib, unda Turkmanistonning bronza davriga oid Gonur vohasidan topilgan ko'plab rangli metalldan yasalgan artraktarning rentgen-fluorescent tahlili (the X-ray fluorescence analysis) haqidagi ilmiy xulosalar yoritilgan. Ushbu eksponatlarning barchasi Mari tarixiy-madaniy muzeysi va Turkmaniston davlat muzeyida saqlanmoqda. Tadqiqotchilar yettita ko'zgu va egasining yuqori ijtimoiy tabaqaga mansubligini ko'rsatuvchi ikkita artefakt (nayza uchi va tayoq) larning sinov natijalarini maqolada taqdim etishgan. 2018- 2020-yillarda portativ spektrometr yordamida qotishmalarining kimyoviy tarkibini tavsiflovchi ko'plab natijalar olingan. Maqolada yettita metall muhr muhokama qilingan bo'lib, ular turli xil qotishma formulalarini ko'rsatadi. Ularning asosiyлари mis- $q_0$ - $r_g$ - $oshin$  ( $Cu+Pb$ ) va mis ( $Cu$ ) qotishmalari bo'lib, ular orasida mishyak ( $As$ ) ustunlik qilishi, o'rganilayotgan namunalarning xarakterli belgilari sifatida esa, bronza quyishda qo'rg'- $oshin$  ( $Pb$ ) ning keng qo'llanilishi; mahalliy kumushdan ( $Ag$ ) foydalanishga asoslangan qotishmalarining mavjudligi, bronza hosil qilishda qalayning ( $Sn$ ) roli, ushbu qotishma metallar qurol (nayza uchi) va kuch ramzları (tayoqcha) ni ishlab chiqarish uchun katta miqdorda ishlatilganligi tadqiqotchilar tomonidan alohida qayd etilgan.

Rentgen-fluorescent tahlillari Gonurtepa yodgorligidan turli xomashyolar aralashmasi bo'yicha tayyorlangan metall buyumlar topilganligini ko'rsatdi. Xususan, mis- $q_0$ - $r_g$ - $oshin$  va mis qotishmalari metal buyumlarni yasashda asosiy xomashyo bo'lib, ruda aralashmalari, ular orasida mishyak ( $As$ ) (mis asosidagi qotishmalarining sifatini oshirishi mumkin) ustunlik qiladi. Bu esa, mis rudasi manbalarini aniqlash uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bronza quyishda qo'rg'- $oshin$  ( $Pb$ ) keng qo'llanilishi, shuningdek, mahalliy kumush ( $Ag$ ) asosida va undan foydalangan holda qotishmalarining mavjudligi ham yodgorlik metall buyumlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Metall hosil qilishda qalayning ( $Sn$ ) roli minimal bo'lib, bu qotishma metall qurol (nayza uchi) va kuch ramzları (tayoqcha) ishlab chiqarish uchun katta miqdorda ishlatilgan. Shuningdek, mahalliy oltin ( $Au$ ) eng keng qo'llanilgan metallardan biri bo'lib, undan nafaqat zargarlik buyumlari, balki idish-tovoqlar ham yasalganligi maqolada ta'kidlab o'tilgan.

Uchunchi maqola G.E.Veresotskaya, N.A.Kovalyeva, M.A.Mamedov, N.A.Dubova, va J.S. Karanova hammullifligidagi “Gonur Depe, Turkmanistonning bronza davriga oid mozaik naqshli rasmlarini saqlash, tiklash va rekonstruksiya qilish” (“Conservation, Restoration and Reconstruction of the Bronze Age Paintings with Mosaic Inlays from Gonur Depe, Turkmenistan”)[5] nomli maqola bo‘lib, unda 2004-yilda Gonurtepa yodgorligida amalgal oshirilgan qazishmalar natijasida aniqlangan tosh parchalari bilan birgalikda, noyob rangtasvir texnikasida yasalgan bronza davri mozaikalari haqidagi ma'lumotlar yoritib o'tilgan. Ular mil. avv. 2300–2250-yillarga oid elita qabrlardan topilganligi, nafaqat murakkab geometrik shakllar, balki ba’zi manzaralari tasvirlar ham mavjudligi, ular orasida ilonlar, qanotli griffinlar, qushlar va inson tasvirlarini o‘z ichiga olgan tasvirlar alohida qayd etilgan. Ayniqsa, mozaik bezakning boy topilmalari “Shoh nekropol”ining 3210, 3220, 3230 va 3880 qabrlaridan topilgan. Butun kompozitsiyalar 3210-qabrdan topilgan bo‘lib, ular bo‘yinlari baland va yalang‘och tishi og‘izidan ko‘rinib turgan qanotli griffinlarning navbatma-navbat juftlarini tasvirlaydigan “Bir-biriga qarab turgan griffinlar juftligi” (uzunligi 86 sm) va “Griffin kartushda”, to‘rburchak shakldagi kartushga kiritilgan qanotli griffinli mozaik kompozitsiyalari alohida ahamiyatga ega. 3210-qabrdan topilgan mozaikalalar orasida “echkini yutib yuborayotgan ilon ajdaho” tasvirlangan ikkita kompozitsiyaning noyob qismalari mavjudligi Gonurtepa bronza davri aholisining diniy mifologik dunyosini ochib berishga yordam berishi tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan. Maqolada, shuningdek, 3230-, 3210- va 3245-qabrlardan topilgan uchta mozaika bo‘laklarini tozalash,

konservalash va tiklash jarayonida ularni ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlataligil materiallarning qiziqrili tafsilotlari haqidagi ilmiy ma'lumotlarga keng urg‘u berilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, mozaikalar Gonurtepa moddiy madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida Murg‘ob vohasining bronza davri aholisining madaniy tarraqqiyoti yuqori ekanligini isbotlash va bu hududda qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ilk markazlaridan biri mavjudligini tasdiqlash imkonini berishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar.** “Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo‘yicha 12-Xalqaro Konferensiya materiallari” to‘plamida jami 73 ta maqola chop etilgan bo‘lib, ularning 6 tasi Oks sivilizatsiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu maqolada quyidagi uchta maqola ilmiy tahlil qilingan bo‘lib, birinch maqolada Qadimgi Marg‘iyonaning ma’muriy-diniy markazi hisoblangan Gonurtepa yodgorligining monumental binolari va ularning qurilish arxitekturasi haqida ilmiy-tahliliy ma'lumotlar arxeologik dalillar va radiakarbon tahlil natijalari orqali umumlashtirilgan. Ikkinch maqolada Turkmanistonning bronza davriga oid Gonur vohasidan topilgan ko‘plab rangli metalldan yasalgan artrfaktlarning rentgen-fluorescent tahlili (the X-ray fluorescence analysis) haqidagi ilmiy xulosalar yoritilgan bo‘lsa, uchinchi maqolada 2004 - yilda Gonurtepa yodgorligida amalgal oshirilgan qazishmalar natijasida aniqlangan tosh parchalari bilan birgalikda, noyob rangtasvir texnikasida yasalgan bronza davri mozaikalari haqidagi ma'lumotlar yoritib o’tilgan. Umuman olganda, maqolalar Oks sivilizatsiyaning ajralmas bir qismi hisoblangan Marg‘iyona tarixi va arxeologiyasi bo‘yicha yildan-yilga yaxshi tadqiqotlar yaratilayotganligini ko‘rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

- Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeggi, Francesca Cavaliere, Claudia D’Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. XII, 1044 pages, 689 fig., 43 tables.
- Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 2: Field Reports. Islamic Archaeology. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeggi, Francesca Cavaliere, Claudia D’Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. XII, 956 pages, 13 diagrams, 543 fig., 76 maps, 14 tables.
- Sataev R., Sataeva L., Dubova N. Building Technologies at the Bronze Age Site of Gonur Depe (Turkmenistan) on the Basis of the Study of Its Palace // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeggi, Francesca Cavaliere, Claudia D’Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. – P. 541-546.
- Tishkin A.A., Dubova N.A., N.N.Seregin. Results of X-Ray Fluorescence Analysis of Metallic Items from the Archaeological Complex of Gonur Depe (Turkmenistan) // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeggi, Francesca Cavaliere, Claudia D’Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. – P. 583-596.
- Veresotskaya G.E., Kovaleva N.A., Mamedov M.A., Dubova N.A., Karanova J.S. Conservation, Restoration and Reconstruction of the Bronze Age Paintings with Mosaic Inlays from Gonur Depe, Turkmenistan // Proceedings of the 12 th International Congress on the Archaeology of the Ancient Near East 06-09 April 2021, Bologna. Vol. 1: Environmental Archaeology. Hammering the Material World. Cognitive Archaeology. Modeling the Past. Networked Archaeology. Endangered Cultural Heritage. Edited by Nicolò Marchetti, Michael Campeggi, Francesca Cavaliere, Claudia D’Orazio, Gabriele Giacosa, Eleonora Mariani. Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2023. – P. 1035-1044.
- Kattayeva G.Ch., Xamidov O.A. Oks sivilizatsiyasi bo‘yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 1-qism (Povoljskaya arxeologiya jurnali misolida) // O'zMU xabarlari, 1/3/1. Toshkent, 2024. 31-33-bb.
- Xamidov O.A., Kattayeva G.Ch. Oks sivilizatsiyasi bo‘yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 2-qism (“Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnali misolida) // O'zMU xabarlari, 1/3/1. Toshkent, 2024. 55-57-bb.
- Luneau E. L’age du Bronze final en Asie Centrale meridionale (1750-1500/1450 avant n.e.): la fin de la civilisation de l’Oxus. Universite Paris 1 – Pantheon – Sorbonne UMR 7041 – ARSCAN.Version 1 – 17 Jan – 2013. Volume I.



УДК 930.26 (575.1)

**Бокижон МАТБАБАЕВ,**

Главный научный сотрудник Самарканского археологического института, профессор

E-mail: bokijonmatboev@gmail.com

**Комил РАХИМОВ,**

Старший научный сотрудник Самарканского археологического института, к.и.н.

По рецензии Норкобилова Тахира Хусановича, PhD, заведующего отделом "Искусства и этнографии" Государственного музея истории Узбекистана

## NEW MONUMENT TO THE BRONZE AGE ALIBAITEPA (SOUTHERN UZBEKISTAN)

### Annotation

This article describes archaeological finds (axes, arrowheads, knives, etc.) obtained as a result of research conducted at the Bronze Age burial ground of Alibaytepa, Sariasi district, Surkhandarya region, also provided by the local population, their shape, size, functions, geography of distribution, comparison with finds of other cultures of the Bronze and Early Iron Ages and comments on their dating

**Key words:** Central Asia, Northern Bactria, Ancient Bactria, Alibaitepa, Sapallin culture, Bishkent culture, axe, knife, arrow tips, stone rod, bead.

## BRONZA DAVRIGA OID YANGI YODGORLIK ALIBOYTEPA (JANUBIY O'ZBEKISTON)

### Annotasiya

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani bronza davriga oid Aliboytepa qabristonida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo'lg'a kiritilgan va shu bilan birga mahalliy aholi tomonidan taqdim etilgan arxeologik topilmalar (bolta, o'q uchi, pichoq va boshqa) tavsifi berilib, ularning shakli, o'lchami, vazifalari, tarqalish geografiyasi, boshqa madaniyatlarning bronza va ilk temir davri topilmalari bilan qiyoslash va ularning davriy sanalari haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, shimoliy Baqtriya, Qadimgi Baqtriya, Aliboytepa, Sopolli madaniyati, beshkent madaniyati, bolta, pichoq, o'q uchi, tosh tayoq, munchoq.

## НОВЫЙ ПАМЯТНИК ЭПОХИ БРОНЗЫ АЛИБАЙТЕПА (ЮГА УЗБЕКИСТАНА)

### Аннотация

В данной статье описаны археологические находки (топоры, наконечники стрел, ножи и др.), полученные в результате исследований, проведенных на могильнике бронзового века Алибайтепа Сариасийского района Сурхандарьинского области, также предоставленные местным населением, приводится их форма, размеры, функции, география распространения, сравнение с находками других культур бронзового и раннего железного веков и комментарии их датировок.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Северная Бактрия, Древняя Бактрия, Алибайтепа, сапаллинская культура, бишкентская культура, топор, нож, наконечник стрелы, каменная жезл, бусина.

**Введение.** Весной 2011 г. сотрудники Института археологии получили сообщения об отдельных находках с раннее неизвестного археологического памятника в Сурхандарьинской области. Позже группа сотрудников посетила памятник, провела рекогносцировочное обследование и собрала некоторое количество археологических материалов.

Алибайтепа находится на территории кишлака Навабад Сариасийского района Сурхандарьинской области. Памятник расположен над правым берегом древнего русла Тупалангдары. Осмотр возвышенности показал, что в ее южной части располагался видимо, грунтовый (?) могильник. На поверхности следов могил не отмечено, поскольку она снивелирована при проведении сельскохозяйственных работ. На поверхности возвышенности подъемных материалов не зафиксированы. При выемке грунта для строительства домов местными жителями было разрушено несколько могил и собрано предметов из металла, керамики и камня.

Предварительный осмотр памятника и опрос местного населения показал, что могильник располагался на площади 5-6 га (размеры примерно 200x300 м), состоит из рассредоточенных грунтовых могил. Могилы судя по всему ямной конструкции и находятся на глубине примерно 0,5-1,5 м от современной дневной поверхности. У местных жителей было собрано некоторое количество предметов из разрушенных могил. Все эти предметы датируются эпохи поздней бронзы. Памятники этого времени на территории Узбекистана достаточно редки и поэтому изучения каждого нового памятника имеет важное научное значение.

В южной части холма на котором расположен некрополь в настоящее время проводятся земляные работы. В разрезе поврежденной части холма нами зафиксированы контуры могильной ямы. Одна из могил нами обследована. Погребение №1 расположено на южном склоне холма. Контуры могильной ямы фиксируются лишь на глубине 70-80 см. от современной поверхности. К западу от могильной ямы зафиксирована

большой плоский камень (примерно 50Х40 см. Каменная плита находится на расстоянии 20 см от края ямы и выше на 30 см по уровню. По утверждением местных жителей на этом холме находка больших камней сопровождается человеческими костями. Могильная яма повреждена при ограблении и современных земляных работах. Она видимо имела овальную форму с размерами порядка 105x60 см., ориентацией З-В. Сохранившая наивысшая глубина могильной ямы до 20 см. Местами контуры ямы не прослеживаются заполнение могильной ямы можно подразделить на два слоя. Верхний довольно плотный грунт светлого оттенка, Нижний слой натечного характера, слоистый и весьма плотный. Кости скелета взрослого человека разбросаны по всей площади могильной ямы и по ее глубине. Кости скелета расположены без всякого анатомического порядка разломаны еще в древности и их сохранность очень плохая. Сопровождающий инвентарь состоит из бронзовой шпильки, восьми небольших кремневых наконечников стрел и более 50 бусин самых различных размеров. Он разбросан как кости скелета по всем площади и глубине ямы. Лишь в центре ямы отмечено некоторые скопление бусин. Бронзовая шпилька обнаружена на высоте 10 см от дна ямы. Кремневые наконечники найдены по всей площади ямы. В верхнем слое заполнения могильной ямы равномерно распределены мелкие угольки. Являлись они следом погребального обряда или они попали туда случайно пока сказать трудно. Размеры могильной ямы не позволяет расположить в ней скелет взрослого человека и полное отсутствие какого-либо анатомического порядка костей скелета дает возможность предположить, что возможно, мы здесь зафиксировали захоронение расчлененных костей погребенного в грунтовой могиле. Отсутствие в сопроводительном инвентаре керамических сосудов несколько затрудняет датировку погребения.

**Анализ и результаты.** В целом, собранные на Алибайтепа археологические материалы представлены фрагментами керамики, бронзовыми предметами, кремневыми наконечниками стрел, каменными бусинами и подделками.

Среди найденных немногочисленных обломков керамики выделяется фрагменты небольшого сосуда цилиндрической формы с вертикальным заостренным венчиком. Подкошенная часть сосуда выпуклых очертаний. Диаметр венчика 15 см. Внешняя поверхность сосуда покрыта ангобом светлого оттенка. Черепок тонкий, толщиной 0,6 см., в изломе кремового цвета. В тесте черепка имеются мелкие каменные частицы. Обжиг равномерный.

Металлические предметы представлены бронзовыми одним ножом и одним теслом. Нож двух лезвийный с черешком, лезвие вытянуто под треугольные формы с округленными очертаниями (рис.1,1). Лезвие и черешок плоское, одной толщины (0,2 см) с утончением кромки. Тесло массивное со слабо изогнутым лезвием, большими плавными выемками, параллельными гранями Рис.1.

цапфами и прямой четырехугольной в сечении пяткой. Тесло практическое целое (рис.1,2).

Кремневые наконечники стрел представлены 9 экземплярами. По форме пера, размерам и наличию насада представляется возможным подразделить их на три типа.

Первый тип наконечников имеет симметричную листовидную форму пера, с невыделенным насадом (5 экз.). Формы насада различны, с плоским, округлым и заостренным основаниями. Длина наконечников 3,5-4,5 см., ширина 1,5-1,7 см. Один наконечник сравнительно меньших размеров (рис. -2, 1-5).

Второй тип представлен наконечниками сравнительно небольших размеров, с подтреугольной формой пера и с округлым основанием насада (3 экземпляра). Длина наконечников 2,5-2,8 см, ширина 0,7--0,9 см. Характерной особенностью наконечников этого типа является особо тщательная обработка кромок пера (рис. 2, 6-8).

Третий тип характеризуется подтреугольной формой пера с округлым основанием невыделенного насада (1 экземпляр). Тщательная мелкозубчатая обработка кромок пера (рис. 2, 9). Длина наконечника 3,9 см., ширина 1,9 см.


Из различных пород камня изготовлены бусы. По своей форме они подразделяются на три типа (4 экз.).

Первый тип. Два крупных бусин изготовлены из оникса сероватого оттенка с множеством мелких прожилок более темного оттенка, бусины овальной формы (примерно 2,5 см), уплощенные (рис. 2, 10). Поверхность обоих бусин весьма тщательно отшлифованы. Сквозное отверстие располагается по длинной оси бусин.

Второй тип –бусина цилиндрической формы изготовлена из слоистого оникса темно-серого оттенка. Длина бусины 2,5 см, диаметр 1,2 см. Поверхность бусины хорошо отшлифована (рис. 2, 11).

Третий тип - это уплощенная бусина прямоугольной формы, изготовлена из пасты. Центральной части бусины черного цвета, а по краям тусклого-белого оттенка. Сквозное отверстие проходит по длинной оси бусины (рис. 2, 12). Шлифовка поверхности бусины удовлетворительная. Длина бусины 2,4 см, ширина 1,2 см, толщина 0,4 см. Найдены два каменных предмета из стеатита дисковидной формы, уплощенные. Диаметр предметов 2,4-2,8 см, толщина 0,3-0,5 см. Гранки дисков закругленные. Каких-либо изображений нет. Видимо это заготовки амулетов (рис. 2,13-14)).

Отдельную группу предметов составляют два навершия для жезлов (?). Первое из них имеет округло-уплощенную форму, изготовлена из жадеита черного цвета. Поверхность отшлифована до блеска (рис. 2, 15). Диаметр примерно 2,2-2,3 см. Несквозное отверстия глубиной до 1 см, диаметром 1 см. Второе навершие керамическое округло биконической формы (рис. 2, 16). Диаметр навершия



3 см. Обжиг хороший, равномерный. Черепок кремового оттенка. Ангоба нет. Несквозное отверстие глубиной 0,8 см, с диаметром 0,7 см. Вокруг отверстия хорошо заметна потертость от ручки жезла, что свидетельствует о продолжительном использовании навершия.

На территории могильника был найден «жезл» из камня серого цвета. Он имеет цилиндрическую форму, плавно сужаясь к оконечностям. Длина 79 см,


наибольшим диаметром 9 см. На округлые оконечности хорошо заметны следы сработанности. По всей поверхности песта хорошо заметны следы использования (рис. 1, 3).

Археологический комплекс, собранный на Алибайтепе состоит из предметов различных категорий и типов. Это позволяет достаточно объективно характеризовать ближайший круг аналогий материала Алибайтепе походят у соседей – древнеземледельческих культур древней Бактрии. Это в первую очередь Сапаллинская и Бишкентская культуры. Крынки Рис.2.

аналогичных форм имеют широкое распространение среди сапаллинского и бишкентского керамических комплексов. Небольшие керамические цилиндрические сосуды с подкошеннной нижней частью по материалом сапаллинской культуры относятся к бустанскому времени и датируются XI-X вв до н. э. [1]. На памятниках бишкентской культуры подобных сосудов много и они датируются исследователями XIII-XI вв до н. э. [2].

Двухлезвийные ножи широко распространены на памятниках земледельцев и скотоводов Средней Азии [3].

Необходимо отметить что следствии своей многочисленности и упрощенной форме ножи подобной формы датируются сравнительно широко [8]. Весьма своеобразным по своей форме является тесло. Прямых аналогий на памятниках эпохи бронзы Средней Азии нами не обнаружена. Но если обратить на общие принципы технологии и форм, то обнаруживается большое сходства с так называемым теслами уступом [8]. Тесла такого типа получают широкое распространения в Казахстане в эпоху



поздней бронзы [8]. (Кузьмина Е. Е., 1966. С.18-20 Табл. III 9, 14-17). К концу III - и нач. II тыс. до. н. э. относится тесло с цапфами найдены на Алтынделе [8]. Тесла с Алибайтепе сочетает элементы этих двух типов

тесла. Весьма интересна интерпретация использования тесла схожей формы как топор [9].

Изучению кремневых наконечников стрел Средний Азии посвящен целый ряд работ [11], создана

типовогия и схема эволюций форм наконечников. Наконечники стрел Алибайтепе находят широкие аналогии по всей Средней Азии. В то же время необходимо отметить, что вопросы датировки отдельных элементов этого категория археологических материалов еще является весьма спорной. Отметим, по многим технико-типологическим особенностям наконечники стрелы первого типа очень близки к Заманбабинским [14]. Весьма схожи ситуация с бусами. Они обычно датируются весьма в широком диапазоне.

Каменный жезл из Алибайтепе находит аналогии среди материалов Кулябского музея Таджикистана. Опубликовавшие немецкие коллеги также их называют каменными жезлами (Steinstabe als «Zepter») [15]. Исследовавший подобное изделие В.М. Массон (посох по его заключению) учитывая материалы из погр. 362 на Алтын-депе определяет данную находку как предмет относящиеся к лицу, занимавшего особое положение в обществе [17] Т. н. «каменные навершия булавы» находят аналогии среди материалов Заманбабинской культуры в низовьях Заравшана. В поселение 1 на полу землянки найдены глиняные навершия для булавы [14].

**Заключение.** В целом суммируя сопоставления и аналогии материалов Алибайтепе с комплексами других памятников Средней Азии можно предварительно

датировать этот памятник второй половиной II тыс. до. н. э.

Этнокультурная ситуация в эпоху бронзы на территории Северной Бактрии была весьма сложной. Надо отметить, что на востоке - на территории современного Таджикистана распространены памятники Бишкентской и Вахшской культур (Бишкентско-Вахшская культура по Н.М. Виноградовой). А на территории южного Узбекистана существовали памятники Сапаллинской культуры. Между пределами распространения этих культур в настоящее время существует лакуна. Имелись лишь случайные находки [18].

Комплексы из Алибайтепе разновременные, среди материалов выделяются три группы находок: 1. Самые ранние мелкие наконечники стрел (III тыс до н.э.). 2. Находки заманбабинского типа (бусы, бронзовы изделия). 3. Топор-тесло эпохи энеолита-бронзы (III-II тыс до н.э.). Крупный специалист по металлическому изделию Н.А. Авансова в беседы с нами бусы, топор-тесло также считает ранним. По ее заключению топор-тесло происходит из евроазиатских степей.

Таким образом, находки из Алибайтепе и последующие изучение этого памятника существенно дополнить наши представления об эпохи бронзы южного Узбекистана.

#### ЛИТЕРАТУРА

- Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы Южного Узбекистана. Автореф. дисс. ....канд. ист. наук. - Самарканд, ИА АН РУз.ССР 1987. 19 с.
- Виноградова Н.М., Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Памятники Кангурттута в Юго-Западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века). – Москва, 2008, 470 с.
- Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. - Ташкент, 1977. 209 с.
- Кузьмина Е.Е. Арии - путь на юг. Москва – Санкт – Петербург: Летний сад. 2008. 557 с.
- Сайдмурод Б. 1998. Верховья Зарафшана во II тысячелетии до н.э. Душанбе: Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. Материалы Советско-Афганской экспедиции 1969-1974 гг. - М., 1977. 186 с..
- Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М.: Наука, 1977. 369 с
- Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане. МИА. Вып. 145.Ленинград-1968. 182 с.
- Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии. АС. Выпуск В4-9. Москва: Наука. 1966. 144 с.
- Авансова Н.А. Культура пастушеских племен эпохи бронзы Азиатской части СССР (по металлическим изделием). Ташкент 1991. 200 с.
- Горелик М.В. Оружие Древнего Востока (IV тысячелетие - IV в. до н.э.). - М.: Наука, 1993. – 423 с.
- Ширинов Т.Ш. Орудия производства и оружие эпохи бронзы среднеазиатского Междуречья. Ташкент: Фан. 1986. 133 с.
- Баратов С.Р. 1986. К вопросу о типологической классификации каменных наконечников стрел эпохи бронзы Средней Азии // ИМКУ 20 Ташкент. С. 19-28.
- Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана. – Душанбе, 1989. – 252 с.
- Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. Ташкент-1966. 274 с.
- Kai Kaniuth, Mike Teufer und Natalya M. Vinogradova. Neue bronzezeitliche Funde aus Südwest-Tadzhikistan // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. Berlin-2006. Band 36. -S. 81-102.
- Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. Москва: Институт востоковедения РАН. 2004. С. 299
- Массон В.М. Алтын-депе // Труды ЮТАКЭ.Т. XVIII. Л, 1981. 176 с..
- Ртвеладзе Э.В. Бронзовый кинжал из южного Узбекистана (Вахшувар) // СА. №1. 1981. С. 285-286.



Jaloliddin PARDAEV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Pardayevj@mail.ru

Tarxi fanlari nomzodi, dotsent B.Mirkomilov taqrizi asosida

## REVOLUTIONS DURING THE SECOND WORLD WAR DEDICATED WORK BEHIND THE FRONT

### Annotation

In this article, during the Second World War, the selfless work of the people of Gallaorol district, which was part of the Samarkand region, behind the front was analyzed based on archival materials and written scientific sources. The article highlights the humanitarian and tolerant qualities of the people of Gallaorol in receiving the food, clothing, and material funds sent to the front, as well as the population evacuated from the war zones.

**Key words:** Gallaorol district, World War II, food products, material resources, livestock products, tolerance, Polish citizens, Koytash mine.

## РЕВОЛЮЦИИ ВО ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ПОСВЯЩЕННАЯ РАБОТА ЗА ФРОНТОМ

### Аннотация

В данной статье в годы Второй мировой войны на основе архивных материалов и письменных научных источников анализируется самоотверженный труд жителей Галлаорольского района, входившего в состав Самаркандской области, в тылу фронта. В статье освещаются гуманитарные и толерантные качества жителей Галлаорола при приеме продовольствия, одежды и материальных средств, отправляемых на фронт, а также населения, эвакуированного из зон боевых действий.

**Ключевые слова:** Галлаорольский район, Вторая мировая война, продукты питания, материальные ресурсы, продукты животноводства, толерантность, польские граждане, шахта Койташ.

## IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA G'ALLAOROLLIK LARNING FRONT ORTIDAGI FIDOKORONA MEHNATI

### Annotatsiya

Ushbu maqaolada 2-jahon urushi davrida Samarqand viloyati tarkibida bo'lgan G'allaorol tumani aholisining front ortidagi fidokorona mehnati arxiv materiallari va yozma ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Maqolada G'allaorolliklar tomonidan frontga yuborilgan oziq-ovqat, kiyim-bosh, moddiy mablag'lar hamda urush bo'layotgan hudulardan evakuatsiya qilingan aholini qabul qilishda ularning insonparvarlik va bag'rikenglik fazilatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** G'allaorol tumani, 2-jahon urushi, oziq-ovqat maxsulotlari, moddiy mablag', chorva mahsulotlari, bag'rikenglik, polyak fuqarolari, Qo'yotosh koni.

**Kirish.** Insoniyat boshiga eng katta ofat va qurbanolar keltirgan ikkinchi jahon urushida boshqa xalqlar bilan yelkama-yelka bir safda turib o'zbek xalqining jasur farzandlari ham fashizm balosiga qarshi mardonavor jang qildilar. So'nggi yillarda o'zbekistonliklarining ikkinchi jahon urushida g'alabaga qo'shgan hissasi, ularning front va front ortidagi qahramonliklari va mashhaqqatli mehnatlarini ilmiy jihatdan o'rghanish tarixchi-olimlar oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram SH.M.Mirziyoyev 2018 yil 9 may "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlangan nutqlarida bildirgan quyidagi fikrlari diqqatga, muhim amaliy ahamiyatga sazovordir: "Bugungi fursatdan foydalanib, men tarixchi-olimlarimizga, adabiyot va san'at arboblariga, keng jamoatchiligidanizga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman. Bu dahshatlari urushda qatnashgan ota-bobolarimizning qahramonligi haqida yangi-yangi asarlar yaratish, jumladan, aniq tarixiy hujjatlar asosida mukammal kitob-albom tayyorlab, nashr etishning vaqt(soati keldi)" [1].

Ikkinci jahon urushi davrida o'zbekistonliklarning frontga oziq-ovqat maxsulotlari, kiyim-bosh va boshqa moddiy mablag'lar jo'natish, hamda urush bo'layotgan hudulardan ko'chirib keltirilgan aholini qabul qilishda Samarqand viloyati tarkibidagi G'allaorol tumani aholisi ham o'zining munosib hissasini qo'shdi.

1941-yil 22-iyun kuni fashistlar Germaniyasining Sovet Ittifoqiga bosqinchilik yurishi haqidagi xabar G'allaorol tumaniga yetib kelgach, tumanligi barcha tashkilotlar, jamoas, davlat xo'jaliklarida, sanoat korxonalarini va maktablarda ko'p kishilik mitinglar bo'lib o'tdi [7].

1941-yil 22-iyun kuni G'allaorol tumani markazida bo'lib o'tgan mitingda tuman aholisiga qarata qabul qilingan murojaatnomada kishilarni har qachongidan xam unumli mehnat qilishga, frontga zarur bo'lgan don, chorva mahsulotlari yetishtirib berishni ko'paytirishga, frontga jo'nagan erkaklar o'rnnini xotin-qizlar Egallashlari haqida da'vat qilindi. Viloyatning boshqa tumanlarida bo'lgani kabi G'allaorol tumanida ham zudlik bilan xalq xo'jaligida Vatan himoyasi maqsadlariga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. Urush boshlanganidanoq hamma narsa urush manfaatlariga bo'ysundirildi. Kolxzochi yigitlar ketmonni, o'roqni miltiqqa almashtirib zolim yov bilan ayovsiz jangga otlanishdi. Frontga ketgan yigitlarning o'rnnini qariyalar, ayollar, yosh-yalanglar egallab, frontga g'alla, tuxum, go'sht, jun, kiyim-kechak yetkazib bera boshladilar.

Tuman mehnatkashlari xalq xo'jaligini harbiy izga solib yuborish borasidagi hukumat qarorlarini bajarish yo'lida barcha choralarini ko'rdilar.

Urush boshlangan yili tuman hududida 12 mahalliy kengash bo'lib, uning tassarrufida 13 ta jamaoa xo'jalik va

“G’allaorol-1” davlat xo’jaligi mavjud edi. Urush qiyinchiliklariga qaramay, tuman 1941-yilgi qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirish rejalarini oshirib bajardi. Front uchun paxta xuddi o’q-dori kabi zarurligi hisobga olinib, tumanning tog’ oldi lalmi yerlaridagi shartli sug’oriladigan yerlarda buloq suvi bilan yeug’orish hisobiga paxta yetishtirish yo’lga qo’yildi. Tumavdagi mavjud 25 jamoa xo’jaligida 500 hektar yerga paxta ekilib, gettaridan 11,4, jami 5700 sentner paxta hosili yirib olinib davlatga armug’on etildi. G’allaorol qishloq kengashiga qarashli jamoa xo’jaliklari 254 hektar, Qoraqishloq qishloq kengashiga qarashli jamoa xo’jaligi 20 hektar, Qoratosh qishloq kengashi hududidagi jamoa xo’jaliklari 99 hektar yerga ekilgan paxtadan mo’l hosil olishga muvaffaq bo’ldilar. 1941 yili tuman bo’yicha 110765 hektar yerga qishloq xo’jalik ekinlari ekildi. Undan 50061 gettariga kuzgi, 31788 gettariga baxorgi don ekilib, 100546 sentnerga yaqin don hosili yig’ib olindi. G’allaorol frontga g’alla yetishtirish rejasimi muddatididan ilgari oshirib bajarishga muvaffaq bo’ldilar [8].

Jamoa xo’jaliklari, xonardonlarda chorva mollari sonini kamaytirmagan holda mahsuldarlikni oshirishga e’tibor kuchaytirildi. Aholi qo’lida 9325 bosh qoramol, 35536 bosh qo’y, 5735 bosh echki bo’lgan bo’lsa, jamoa xo’jaliklarda 9072 bosh qoramol, 36797 bosh qo’y, 4217 bosh echki bo’lib, chorvadorlar o’sha og’ir yillarda fidokorona mehnat qildilar. 11 jamoa xo’jaligida qo’y, echki suti qayta ishlanib, pishloq sifatida frontga jo’natib turildi. 1941 yilda tumandan frontga 4482 sentner go’sht maxsuloti jo’natildi. G’alla, boshqa qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirishda “G’allaorol-1” sovxozi ishchi va xizmatchilar juda katta yutuqlarni qo’lga kiritdilar.

Tumanda chorva mollarini ko’paytirish uchun samarali ishlar amalga oshirildi. “Stalin” kolxози cho’ponlari rejada ko’rsatilgan 1838 o’rniga 1934 bosh qo’ylar kupaytirildi. “Sotsializm” kolxozida 542 bosh, “Yangi dehqон” kolxozida 547 boshga yetkazildi [10].

Tuman davlat arxivida 1941 yilning dekabrida Samarqand viloyat partiya qo’mitasi va viloyat ijroiya qo’mitasiga jo’natilgan telegrammada, g’allaorolliklar O’zbek Milliy otliq harbiy qismiga 46 tonna bug’doy, 20 tonna arpa, 1 tonna uzum, 2,2 tonna eritilgan yog’ jo’natilganligi haqidagi ma’lumotlar mavjud.

O’zbekiston KP (b) Markaziy Qo’mitasi birinchi kotibi Usmon Yusupov, Respublika Xalq Komissarlari Kengashi raisi Abdujabbor Abdurahmonovlarning 1942 yil sentabrdagi shoshilinch telegrammasiga muvofiq 10 sentabr kuni G’allaorol tumanidan Stalingrad fronti uchun bir vagon jun, teri, etik, askarlar uchun juda ko’p issiq kiyim-boshlar jo’natilgan.

Front ortini mustahkamlash, jangchilar uchun oziq-ovqat, kiyim-bosh to’plash va uni jo’natishdek mashaqqatlari ish keksalar, xotin-qizlar va o’smirlar zimmasida turardi. G’allaorolliklar tomonidan Janubiy frontga 7,4 ming tonna g’alla, 24 ming so’m pul, 1000 ta har xil kiyim-kechak, qamalda qolgan Leningrad shahriga 1600 tonna g’alla, 22 ming so’m pul jo’natildi.

Samarqand viloyatida tanklar va samolyotlar qurush uchun viloyatda mablag’ to’plash uchun harakat avj olishi natijasida Komsomol tumanı mehnatkashlari (hozirgi Tayloq) 4431000 so’m, G’allaorol tumanı 3519000 so’m, Kattaqo’rg’on tumanı 2757000 so’m, Payariqtumanida 2544000 so’m to’planib, viloyat bo’yicha 1942 yilning 21 dekabrigacha 40104000 so’m mablag’ davlat banklarining bo’limlariga topshirildi [5].

1941-1945 yillari fashistlar vaqtincha bosib olgan Polsha, Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo’yi respublikalarida istiqomat qiladigan aholi mamlakat ichkarisiga ko’chirib keltirildi. 1943 yili tumanga Polsha fuqarolari ko’chirib keltirilan edi. Tuman aholisi polshaliklarni uy-joy bilan

ta’minlab, ularni 1- va 2- mashina-traktor stansiyalari, Milyutin davlat tajriba stansiyasining Markaziy g’alla tayyorlash punkti, jamoa va davlat xo’jaliklari ishga joylashtirib, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minladilar. 1942 yili Xarkov dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Qattaqo’rg’on tayanch punktiga, seleksiya stansiyasi esa G’allaorol tumanidagi Milyutin davlat tajriba stansiyasiga ko’chib kelgan. Ko’chib kelgan ilmiy xodimlar va ularning oila a’zolari zdulik bilan uy-joy va mutaxassisliklari bo’yicha ish bilan ta’minlangan, dehqon-chilik qilishlari uchui tomorqa yer aratib berilgan [9].

Urush yillari Jizzax shahri va G’allaorol tumaniga bir qancha tashkilotlar, korxonalar, kasalxonalar ko’chirib keltirilgan. Jumladan, 1941-yili Jizzax shahri va G’allaorol tuman markaziga jarohatlan-ganlarni davolaydig'an harbiy kasalxona ko’chirib keltirildi. 1941-yil 8 dekabrdan ko’chib kelgan harbiy kasalxona uchun tuman markazidagi 25-maktab, madaniy mollar magazini binolari hamda Suv xo’jaligi ma’muriy binosi ajratildi. Kuropatkino (hozirgi Lalmikor) qishlog’iga ham harbiy kasalxona ko’chirib keltirilgan. Harbiy kasalxona bosh vrachi 2-rang harbiy vrach Qonovalov, mayor I.Bichenkolar yarador askarlarni davolash ishlarini yaxshi yo’lga qo’yib, ularni tezroq sog’ayib, yana safga qaytishlarini ta’minlash uchun hormay-tolmay mehnat qildilar.

Urush boshlanishi bilan Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo’yi respublikalaridan O’zbekistonga bir milliondan ortiq aholi va 200 mingdan ziyyod yetim bolalar ko’chirildi. Shundan 165 ming kishi Samarqand viloyatiga joylashtirildi. Viloyat mehnatkashlari bilan bir qatorda G’allaorolliklar ham ko’chirib keltirilgan aholini bag’rikenglik bilan qabul qilib oldilar [6].

“1941-yil 1 oktabrdan SSSR Ichki Ishlar xalq komissarligi ko’rsatmasiga muvofik, O’zbekiston hududiga dastlab 100 ming polyak fuqarolarini joylashtirish ko’zda tutilgan edi. Shundan 25 000 kishi Samarqand viloyati hududiga kelishi kerak edi.

1941-yilning 3 oktabrida Samarqand viloyati ijroiya qo’mitasi “mutlaqo mahfiy” grifi bilan “Viloyat tumanlariда 25 000 ko’chirib keltirilgan polyak fuqarolarini joylashtirish haqida” № 30-qarorini qabulqildi. Bu qarorning birinchi bandiga binoan, viloyat tumanlariga polyak fuqarolarini joylashtirishning quyidagi tartibi belgilandi:

Past Darg’om tumaniga 3000 kishi, Jizzaxga - 2500, Qoradaryo, Paxtakor, Payariq, Jomboy va Bulung’ur tumanlarining har biriga - 2000 kishidan, Narpay, Oqdaryo, Zomin, G’allaorol va Mitan tumanlarini har biriga - 1500 kishidan, Kattaqo’rg’on va Xatirchi tumanlariga 1000 kishidan joylashtirishi rejalashtirildi”.

SamDU professori SH.Pirimqulov ma’lumotlariga ko’ra, 1944 yilning oxiri va 1945 yilning boshlarida viloyat hududida polyak fuqarolarining soni 13500-13700 kishi bo’lib, ular viloyat tumanlarida quyidagicha joylashgan, ya’ni Kattaqo’rg’on tumanida- 1475 kishi, Narpayda - 920 kishi, Past Darg’omda - 845, Jizzaxda - 685, Bulung’urda - 560, Paxtakorda - 55, G’allaorolda - 430, Xatirchida - 370, Zominda - 280, Payariqda - 250, Jomboyda - 164, Qoradaryoda - 130, Oqdaryoda - 120, Komsomol (hozirgi Tayloq)da - 75, Urgutda - 75, Forishda - 14, Nurota tumanida esa 12 kishi, shahardagi Siyob tumanida - 3658 kishi, Temiryul tumanida - 786, Bog’ishamol tumanida esa 537 kishini tashkiletildi.

Samarqand viloyatida polyak bolalari muassasalari 1942 yil boshidan Polsha elchixonasining O’zbekistondagi hodimlari tomonidan tashkil etishga kirishildi. Shu yilning o’rtalariga qadar viloyatning Kattaqo’rg’on, Jizzax, Past Darg’om, Narpay, G’allaorol, Payariq, Paxtakor tumanlarida va Samarqandshahrida bolalar uylari faoliyat ko’rsata boshlaydi. Bu bolalar uylarida 265 nafar bola boshpana topgan edi [4].

Arxiv materiallari ma'lumotlariga ko'ra Samarqand viloyatida jami 14 ta polyak maktablari tashkil etilgan bo'lib, ularning bittasi G'allaorol tumanida, yana bittasi esa Jizzax shahrida tashkil etilgan. G'allaorol tumanidagi mактаб tumanning Milyutin stansiyasida 1943 yil yanvar oyida tashkil etilgan bo'lib, unda 35 nafar o'quvchi tahsil olgan [2].

Viloyat hududidagi polyak fuqarolarining bir qismmini ularda bo'lgan mutaxassislik sohasi buyicha ish bilanta'minlanishiga erishilgan. G'allaorol tumanidagi Qo'yotosh koni qurilishiga polyak fuqarolaridan 40 kishi,

Langar koni qurilishiga 50 kishi va Ingichka koniga 40 kishi ishlash uchun safarbar qilingan [3].

**Xulosa.** O'ta og'ir va mashaqqatli urush yillarda G'allaorolliklar ham o'zbek xalqiga xos bo'lgan insonparvarlik va bag'rikenglik fazilatlarini namoyon qildilar. G'allaorolliklar ham urush bo'layotgan g'arbiy hududlardan evakuatsiya qilingan turli millat vakillariga boshpvana berib, bir burda nonini ular bilan baham ko'rdilar. G'allaorollik keksalar, ayollar va o'smirlar front ortida tunu-kun mashaqqatli mehnat qilib, buyuk g'alabaga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9 may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2018 yil 9 may. Lex.uz
2. Первий выпуск полской школы//“Ленинский путь”. 13 июля 1944 г. № 134 (1660).
3. Pirimqulov SH. Polyak fuqarolari Samarqandda (1941-1946 у.у.). Samarqand “Zarafshon”. 1999-B. (19-20 )
4. Samarqand VDA, 78-fond, 12-ro'yxat, 68-yig'ma jild, 88-varaq
5. Samarqand tarixi. Ikki tomlik, 2-tom. Mas'ul muharrir I.M. Mo'minov, T.: “Fan”, 1970.
6. Samarqand tarixi. Ikki tomlik. 2-tom. T.: Mas'ul muharrir I.M. Mo'minov “Fan”, 1970, B.235
7. Haydarov H., M.Pardayev va. b. G'allaorolnoma. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent-1996. 54 b.
8. Haydarov H., M.Pardayev va. b. G'allaorolnoma. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent-1996. 56 b.
9. Haydarov H., M.Pardayev va. b. G'allaorolnoma. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent-1996. 59-60 b.
10. Chorvachilik rivojlansin//“Lenin yo'li”. 1942 yil 7 iyul. № 157(3181).

**Parvina RAHMONOVA,**

*Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: rahmonovaparvina356@gmail.com*

*PhD, dotsent F.Rashidova taqrizi asosida*

## THE ROLE OF FIRDAVSMONAND SAMARKAND IN THE ESTABLISHMENT OF THE POWER OF IMAMAKULIKHAN

### Annotation

In this article, the role of Samarkand in the rule of Ashtarkhani ruler Imamquli in Samarkand and the acquisition of the throne of Bukhara is revealed based on relevant sources.

**Key words:** Mogiyan lake, Dostum argun, king Kochakbi, Hajibi noyan, Camarqand fortress, Imamqulikhan.

### РОЛЬ ФИРДАВСМОНАНД САМАРКАНДА В УСТАНОВЛЕНИИ ВЛАСТИ ИМАМАКУЛИХАНА

#### Аннотация

В данной статье на основе соответствующих источников раскрывается роль Самарканда в правлении аштарханского правителя Имамкули в Самарканде и занятии трона Бухары.

**Ключевые слова:** Озеро Могиян, Дустум Аргун, Шах Кочакби, Гаджиби Ноин, Замок Камарканд, Имамкулихан.

### IMOMQULIXON HOKIMIYATINING O'R NATILISHIDA FIRDAVSMONAND SAMARQANDNING TUTGAN O'RNI

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada Ashtarkoni hukmdor Imomqulining Samarqanddag'i hokimligi va Buxoro taxtini egallashida Samarqandning tutgan o'rni tegishli manbalar asosida o'chib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mog'iyan ko'li, Do'stum arg'un, shoh Ko'chakbiy, Hojibiy no'yon, Camarqand qal'asi, Imomqulixon.

**Kirish.** O'zbek davlatchiligi tarixida hukmronlik qilgan turli sulola yoki hukmdorlarning siyosi, iqtisodiy va boshqa sohalardagi faoliyatida Samarqand o'ziga xos o'rinn tutgan. Ayrim hukmdorlarning taxtga o'tirishidan oldin Samarqandga hokim bo'lgani diqqatga sazovor. Ushbu maqolada Ashtarkoni hukmdor Imomqulixonning Samarqanddag'i hokimligidan taxtga chiqishigacha bo'lgan faoliyati, va bunda bu shaharning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Maqolani yozishda tarixiy taqqoslash, xronologik izchillik, sabab, jarayon va natija bog'liqligi, tarixiy bilishning xolisilik, tarixiylik hamda tizimlilik tamoyillaridan foydalanildi.

Ashtarkoni Vali Muhammadxon va Imomqulixon o'rta sidagi siyosi ziddiyatlar haqida akademik A.Ziyo [1], B.Ahmedov [2], B.Eshov [3], K.Kattaev [4] xorijiy tadqiqotchilar: Welsford Thomas [5], Şeyda Duman [6] va boshqalar o'z tadqiqotlarida keltirib o'tishgan. Ammo ularning hech qaysisida Imomqulining Samarqand hokimligi tafsilotlari keltirilmagan.

Imomquli faoliyatining boshlanishi. 998/1590 yil turkiy sigir yilida dunyoga kelgan Imomqulixon Nadr devonbegi orlotga tarbiyalash uchun topshiriladi [7]. Otasi – Din Muhammad vafotidan so'ng [7], uning tarbiyasi bilan amakisi Boqi Muhammad shug'ullangani quyidagicha و آن در پیش شهوار در کنار عاطفه و تربیت عم بزرگوار خود باقی محمد خان پرورش یافت. Tarbiya muddati matnning hoshiyasida yetti yil (deb ko'rsatilgan [7]. Demak, bundan ayon bo'ladiki, u avval orlot urig'idan bo'lgan Nodir devonbegi, keyinchalik 1598-1605 yillar mobaynida amakisi – Boqi Muhammad qo'llarida tarbiyalandi. Bu esa kelajakda undagi podshohlarga xos bo'lgan xislatlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

"Bahr ul-asror" asarida yozilishicha, Vali Muhammadxon Imomqulini Samarqandga, uning ukasi – Nadr Muhammadni Shahrissabzga hokim etib tayinlaydi [10]. Mir Muhammad Salim esa shunday yozgan: Imomquli Vali Muhammadxon (1605-1611) hukmronligi boshlanmasidan oldin Samarqandni 5 yil mobaynida boshqaradi [7]. Bu manbaga ishonadigan bo'lsak, u 1600-1605 yillarda Samarqand hokimi bo'lgan. Lekin "Tazkirat ush-shuaro" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan Ismoil Bekjonov uni Samarqand hokimlari ro'yxatida keltirmagan [11]. Imomquli

o'zining hokimligi davrida ko'pgina obodonchilik ishlarni amalga oshirgan [12]. Shuning uchun ham uning Samarqanddag'i hokimlik faoliyati maxsus o'rganilishi kerak.

Imomquli va ukasi Nadr Muhammadlar dastlabki vaqtarda amakilariga mamlakat sarhadlaridagi bebosliklarni yengishda yordam berishgan. Masalan, 1607 yil shahzodalar Badaxshonda bo'lib o'tgan notinchlikni yengishda ko'maklashishdi. O'zini Temuriy shahzoda deb da'vo qilgan Mirza Hasan ismli mahalliy badaxshonlik Qunduzga da'vo qilgan chog'ida Imomquli va Nadr Muhammad uni mag'lub etishdi [10]. Shahzodalarning bu kabi janglardagi muvaffaqiyatlari Vali Muhammadxonni tashvishga solib qo'ydi. Undan hokimiyatni tortib olishidan qo'rqqan podshoh shahzodalarning xatti-harakatlarini cheklash uchun ularning yoniga otalilqar yubordi. Masalan, Nazarbiy ko'kaltoshni Samarqandga Imomqulini nazorat qilishga, Nadr Muhammadni akasidan yiroq qilish uchun Balx viloyatiga hokim etib tayinlab, unga otaliq sifatida Nazarbiyning ukasi Shahbek ko'kaltoshni yuboradi [9]. Keyinchalik ba'zi bir amaldorlarning ig'vosi bilan Vali Muhammadxon va Imomquli orasiga sovuqchilik tushadi [7]. Natijada ular orasida bir necha marta janglar sodir bo'ldi. Buning natijasida Imomquli u Samarqanddan Balxga ketishga majbur bo'ldi. Bu haqida oldingi maqolada batafsil keltirib o'tilgan [16].

Vali Muhammadxonning podsholigiga xotima yasagan omillar avvalo uning qilgan noplak ishlari va harakatlari edi. Shu sababli ba'zi bir amaldorlar undan yuz o'girdi va Imomquli tomoniga o'tishdi. Bora-bora xon ba'zi bir amaldorlariga ishonmay qo'ydi va o'ziga sodiq bo'lgan va bo'lmaganlarni ajrata olmay qoldi. Natijada, o'zini bulut ostida his qilgan amirlar Imomquliga xat yozib, amakisiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish va Movorounnahr taxtini egallashga undadilar. Ammo fitnachilarning yuborayotgan xati Vali Muhammadxonning qo'liga tushdi. Bu xat ba'zi bir amaldorlar tomonidan yozilib, hattoki muhri ham bositgan edi. Bundan g'azablangan Vali Muhammadxon Buxoroda kengash chaqirib, xatni xat egalariga ko'rsatdi. Albatta, ular bu da'veoni rad etdilar. Vali Muhammadxon uzrlarini qabul qilmay, ularni qatl qildirdi. Bu qatl qilinganlar Abdullaxon II zamonda eng ishonchli va sodiq amaldorlar – Do'stum arg'un, shoh Ko'chakbiy, Hojibiy no'yon bo'lib, ular Boqi Muhammadxon boshqaruvi vaqtida ham eng obro'li, martabasi baland

amaldorlar edilar. Podshohdan Xojagon bu amaldorlarning gunohlaridan o'tishini so'raydi. Biroq 1019 yil zul hijja oyida (1611) bu uch amaldor Vali Muhammadxonning ularga ishonmasligi sababli qatl etildi [9]. Bu haqida mavlono Arshi torix yozgan.

Unga xiyonat qilgan camarqandlik fitnachilarni jazolash uchun bir guruh odamlarini yubordi. Ammo ular bu holatni oldindan sezishib, ba'zilari o'z qarindoshlari bilan Balxga qo'chishdi. Mahmud ibn Valining yozishicha, o'zaro kurashlar jarayonida 1611-yilda amirlardan Nodirbek, Shakurbiy saroy, Muhammad Boqibiy qalmoq, Yalangtushbii va boshqalar Vali Muhammadxon tomondan Imomqulixon tomonga o'tib ketdi [9]. Ayrimlari Imomquli oldiga borib, uni Samarqandga olib kelib, xon qilib ko'tarishdi [9]. Endi Imomqulixon o'zini quadrati hukmdor deb his qila boshladi va Buhoroga – amakisiga qarshi yurish qildi. U Qarshiga yetib borganida amakisi Vali Muhammad unga qarshi yurishga otlandi. O'sha vaqtida Vali Muhammadning yonida uch mingga yaqin o'zbek askarları bor edi. Jang natijasida Vali Muhammadxon yengilib, Eron shohi huzuriga qochdi [14].

Imomqulixon taxtga o'tirgach, uning dastlabki harakati Toshkentni egallagan qozoq va qoraqlapqoq qo'shmlariga zarba berish bo'ldi. Vali Muhammadxonning yo'qligidan foydalangan Turkistonni boshqarayotgan qozoq shahzodalar Toshkentni egallab, Samarqandga yurish qildilar. Bundan xabar topgan Imomqulixon uksasini Balxdan chaqirib olib, o'zi Samarqandga borib ikki qozoq shahzdosi bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, qozoq shahzodalariga vaqtinchalik Toshkent hududi berildi. Ko'p o'tmay ularning Toshkentdagи hukmronligiga chek qo'yib, o'g'li Iskandar Sultonni Toshkentga hokim etib tayinlab, o'zi Samarqandga qaytib ketdi. Samarqandga qaytayotgan vaqtida onasining bemorligi haqida noxush xabar yetib keldi. Xon ba'zi odamlarini Samarqandda qoldirib, o'zi hamrohlari bilan Buxoroga yo'l oldi. Yetib borgach, amakisi Vali Muhammadxonni Buxoroga kelayotganining xabarini eshitadi. Natijada, Imomqulixon xotini va onasini olib, Vali Muhammadxonning shaharga kirishidan uch kun oldin shahardan chiqib, Qarshiga yo'l oldi.

Vali Muhammadxon shoh Abbosning bergan askari yordamida Buxoroga yurish qildi. U Imomqulixonning asosiy qo'shini Samarqandda ekanligini yaxshi bilardi, shu sababdan ham Buxoroni bosib olish Samarqandga qaraganda oson bo'ladi deb o'ylagan edi. U 1020/1611 yil 26-avgust chorshanba kuni Buxoroga kirib keldi va 1611-yil-27 avgustda qayta taxtni egallab, o'z nomidan tangalar zarb qila boshladi. Buxoroning sayyidlari, ulamolari uning poyiga qayta tiz cho'kdilar. Vali Muhammadxon xotinining ayanchli taqdiridan xabardor bo'lgach, o'sha fatvoni chiqqargan qozini huzuriga keltirdi. Biroq bu qozi uni Imomqulixon majbur qilgani, agar rad javobini bersa, qatl etilish bilan qo'rqtiganini aytadi. Bir qancha amaldorlar bu vaziyatda o'rtaqa tushib, uni o'lim jazosidan qutqarib qoladilar. Xon unga xiyonat qilgan amaldorlarning ko'pchiliginib hibsga oldi va ba'zilariga jarima to'latdi [15].

#### ADABIYOTLAR

- Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 256.
- Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.193.
- Эшов Б. Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019. – Б. 60.
- К.Каттаев. Маҳдуми Аъзам тарихи ва мукаммал даҳбедийлар тарикати. Самарқанд: – Маҳдуми Аъзам Даҳбедий илмий-тадқиқот фонди, 2011. 2023. Б. 94.
- Welsford Thomas. Four types of loyalty in early modern Central Asia. Leiden-Boston: Brill, 2013. – P.97-98.
- Şeyda Duman Buhara hanlığında İmamkulu han dönemi. Afyonkarahisar. 2023. P.185.
- Силсилат ас-салотин, Бодлеян кутубхонаси, Inv.№169, 1836.
- McChesney, R.D., 1944 - Central Asia-foundations of change. The Darwin press, inc.Princeton, New Jersey.P.100.
- Сухайл. Имомкулинома. // ШҚФ қўлёзмаси №89.
- Маҳмуд ибн Вали. Баҳр ул асрор. ЎЗФАШИ. Кўлёзма сони 7418. С.766 80a, 1696

Samarqanddagi vaziyat. Samarqanddagi amirlar Vali Muhammadxonning taxtni qayta egallaganini eshitishgach, ikki guruhga bo'linishdi. Bir guruh Vali Muhammadxonidan kechirim so'rab u tomonga o'tishni afzal bildi. Ikkinci guruh esa Qarshida turgan Imomqulixonni qisqa yo'l orqali Samarqandga olib kelishdi.

Bu voqealardan xabarsiz Vali Muhammadxon Samarqandga qarab kelar edi. Bo'lgan voqealarni eshitgach, u Qarshiga yurishdan qaytargan amirlaridan g'azablandi. Endi Vali Muhammadxon Samarqanddagi Imomqulixonning askarları sonini aniqlash maqsadida bi necha marta ayg'oqchi yuborib, qo'shini o'ng ming kishidan ortiqligi va Samarqand qal'asining oldida xandaq qaziganini aniqladi. Bu jangda Imomqulixonqa qozoq shahzodalar kelib qo'shiladi. Naqshbandiya shayxiga ixlosi baland bo'lgan bu shahzodalar uning rahnamoligida Imomqulixon tomonda jangga kirishishadi [15].

Ular o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1020/ 1612 [18] 14-sentabr kuni rajab ul murajjab oyida Samarqand yaqinidagi Mog'iyon ko'li (Samarqand viloyati tarkibidagi hududdir) yonida bo'lib o'tdi. Iskandarbek Munshiyining aytishicha, har ikkala tomonidan ikki uch yuzdan ortiq odam halok bo'limgan. Imomqulixon xudoga tavakkal qilib, madad so'rab, bir qancha lashkari bilan Samarqandga keldi va o'sha yili 1020/ 1612 avliyolar qutbi hazrat Xoja Hoshimdan ko'mak so'raydi. Hazrat Imomquliga fotiha beradi va aytadiki: G'alaba sening lashkaringga hamroh bo'ladi. Bu gaplardan Imomqulining ko'ngli tasalli topdi va raqibi bilan Mog'iyon ko'li yonida [19] uchrashadilar [13]. O'sha vaqtida Vali Muhammadxonning askarları mag'lub bo'lib, Imomqulixonqa g'alaba hamroh bo'ldi. Natijada yordamga kelgan qizilboshlar har tarafga parokanda bo'ldi. Bu holat xuddi dashtda qo'ylar bo'ridan qo'rqiб yo talofat ko'rib qochganga o'xshardi. Qanchadan qancha shamshir va tirlar yer yuzida lolaga o'xshab qoldi", – deb "Tarixi sayyid roqim" asarida keltiriladi [18]. Bu jang Mog'iyon ko'li yonida sodir bo'ldi va u yerda Vali Muhammadxon yaralanib, o'sha yerda o'ldirildi. Uning qabri ajodolari – Joni Muhammad, Boqi Muhammad kabi Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasidagi Dahmayi shohon (Podshohlar dahmasi)da joylashgan [8].

**Xulosa.** Vali Muhammadxonning hokimiyatni uning qilgan nomaqbwl amallari va xalq orasida obro'li bo'lgan Do'stum arg'un, shoh Ko'chakbiy, Hojibiy no'yyonlarni qatl etishi bo'ldi. Samarqandning ba'zi bir amaldorlari yordamida Imomqulixon Vali Muhammadxonqa qarshi kurashda to'g'ri qaror qabul qilib, qo'lga kiritgan hokimiyatini saqlab qoldi. Buning ustiga uning Vali Muhammadxon boshqaruvidan oldingi 5 yil mobaynida Samarqand hududidagi hokimligi unga o'z tarafdarlarini shakllantirishda yordam bo'lgan deyish mumkin.Bunday holatlar shohlarga xos tarbiya olgan Imomqulixonning podshohlik taxtini egallab, uning atrofida unga xayrioxlar ko'payishiga sabab bo'ldi. Ko'rinish turibdiki, Imomqulixonning oliy hokimiyatni egallashida Samarqand muhim ahamiyat kasb etgan.

11. Мутрибий Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжонов. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – Б. 165.
12. Мутриби Самарқандий. Нусхайи зебойи Жаҳонгир, И.Бекжонов ва С.А.Мужони таржимаси (Кум: Китобхонайи Мараши Нажафий, 1376/1997-1998. Б.223
13. Мухаммадюсуп Мунши. Мукимханская история. / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели профессора А.А.Семенова. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1956. – 304 с.
14. Eskandar beg Monshi. History of shah Abbas the great. Volume II. Translated by Roger M. Savory. – Boulder, Colotado: Westview Press,1930. –P.512.
15. Қожамқули Балхи. Тарихи Қыпчаки. Алматыю.2017. –Б.250.
16. Раҳмонова П.Б. Аштархоний шаҳзодалар ва Вали Муҳаммадхон ўртасидаги зиддиятлар. Ўзбекистон ҳудудида давлатчилик тарихи: анъаналар ва трансформацион жараёнлар мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари // Самарқанд :2024. – Б.94-102.
17. Таниева Г."Ялангтӯш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни" мавзусидаги ҳалқаро конференция материаллари. Самарқанд.: 2019.
18. Тарихи Сайид роқим. // СамДУ қўлёзмаси №, 210 а,
19. 1546 йил 15-марта тузилган Ҳожа Ахрорнинг мозоридаги Мавзолейнинг вакф хужжатида Шовдор тумани таркибидаги Могиён жой номи тилга олинган ( Самарқандские документы XV-XVI вв. С. 329, 358). Жанг бўлиб ўтган жой, яъни "Кўли мofiён" билан хужжатда тилга олинган мавзеъ бир-бирига яқинми? Деган савол ҳам алоҳида тадқиқотни талаб этади.
20. Мухаммад Юсуф Мунший. Тазкираи Муқимхоний // СамДУ қўлёзмаси № 1188170. –41a.
21. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарафномайи шоҳий). Иккинчи китоб. Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳакимжонов таржимаси. Изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Тошкент.: Шарқ, 2000. Б.349.



**Mira'zam TO'XTASINOV,**  
Namangan davlat universiteti talabasi  
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor B.Eshov taqrizi asosida

## SOCIAL - ECONOMIC AND ECONOMIC LIFE IN THE PERIOD OF THE SOMANIANS

### Annotation

This article describes the socio-economic and economic life of the Samanis, who emerged after the crisis of the Arab caliphate in the 9th - 11th centuries and were considered one of the most famous dynasties of the East, and founded a large centralized state. Strength Information about the country in Central Asia is given.

**Key words:** Cocio-economic life, hydrotechnical facility - sluices, mittoks, sluices, juybon and poikors, task, wadori, rabat, Shosh mine, tilmochs.

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И ХОЗЯЙСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ В ПЕРИОД СОМАНОВ

### Аннотация

В данной статье описывается социально-экономическая и экономическая жизнь Соманидов, возникших после кризиса Арабского халифата в IX-XI веках и считавшихся одной из самых известных династий Востока, первоначально основавших крупную централизованную державу. предоставлена информация о государстве в Центральной Азии.

**Ключевые слова:** Социально-экономическая жизнь, гидротехническое сооружение, кориз, мифтокс, шлюз, жуйбон и пойкорс, зандача, вадори, рабат, шахта Шош, тильмоч.

## SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY – IQTISODIY VA XO'JALIK HAYOT

### Annotatsiya

Ushbu maqolada IX-XI asrlarda Arab xalifaligining inqirozidan so'ng vujudga kelgan va O'rta Osiyoda dastlabki o'zining yirik markazlashgan davlatiga asos slogan sharqning eng mashhur sulolalaridan biri hisoblangan Somoniylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy-iqtisodiy hayot, gidrotxnika inshooti, korizlar, miftoxlar, shlyuz, juybon va poykorlar, zandanacha, vadoriy, rabot, Shosh koni, tilmochlar.

**Kirish.** Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmning shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari rivojlangan edi. Somoniylar davlati aholisining asosiy qismi dehqonchilik va chovchachilik bilan shug'ullangan.

Dehqonchilik solig'i xirojdan[15] xazinaga kattagina daromad tushgani uchun Somoniylar xo'jalikning shu tarmog'iga juda katta e'tibor bergenlar. Viloyatlarda suv taqsimoti tartibga solinib, ekin maydonlari imkonli boricha kengaytirilgan. Bir qancha yangi sug'orish kanali qazilib, ularning dahanalariga miftoxlar (shlyuz) va suv tashlagich novalar qurildi. Oqar suv tanqis bo'lgan tog' oldilarida bandlar bino qilinib, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun murakkab gidrotxnika inshooti korizlar qazilib ishga tushiriladi. Charxparak chig'irlardan keng foydalaniladi. Bir so'z bilan aytganda Somoniylar davrida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ancha yaxshilanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Narshaxiying yozishicha, IX asrda Buxoro arki yonida podsholikkha qarashli "Bayt ut-tiroz" katta to'qimachilik korxonasi bo'lgan. Unda qimmatbaho rangli mato, palos, darparda, yostiq jildi, joynamoz va ust kiyimliklar to'qilgan[15]. Samarqandda ko'proq, misgarlik zargarlik va sarrojlik rivojlangan edi. Turli matolar, kimxob, shoyi va ro'mollar to'qilar, yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining konchilik mahsulotlari va charm buyumlari bilan, Eloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Movarounnahrning xo'jalik hayotida Xorazm ham katta rol o'yinaydi. Bu yerda

hunarmandchilikning boshqa sohalari qatorida qayiqsozlik taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlarda Amudaryo bo'ylab mutazam ravishda yuk tashilgan. Bu davrda hunarmandchilikning ayrim sohalari yirik qishloqlarda ham rivoj topdi. Buxoroning Zandana qishlog'ida to'qilgan "zandanacha" malla rang bo'z, Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan "vadoriy" matosi Sharqda eng mashhur va manzur hamda savdosи chaqon mahsulot bo'lgan. V.V.Bartold yirik tadqiqotlaridan birida Zarafshon vohasida mavjud 223 ta qishloq nomlarini keltiradi. Shulardan 101 tasi esa Samarqand viloyatida bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, arab geograflari faqat yirik qishloqlarni (asosan qaysi qishloqda jome masjidi va bozor bo'lgan bo'lsa) tilga olganlar. Viloyatda aholining zich yashashi hisobga olinsa, Sirdaryoning o'rta oqimida yana yuzdan ortiq kichik tahminan 50-100 kishi yashaydigan kichik qishloqlar ham bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tishgan. Buxoro IX-X asrlardagi rabot ya'ni qishloqlarni o'z ichiga olib birmuncha kengaygan, aholisi soni esa sezilarli darajada ko'paygan. Shu asrlardagi Buxoroni tilga olib Istaxriy Buxoroni Movarounnahr va Xurosonda eng ko'p aholi yashaydigan shahar deb ta'riflaydi. Afsuski, aholi sonini aniq belgilab beradigan boshqa aniq ma'lumotlar mavjud emas. O.G.Bolshakovning taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro hududlarida X asrda 40-50 ming kishi bo'lgan. Uning atroflarida va rabotlarida yana 48 ming kishi yashagan. Bundan ko'rinish turibdiki, Buxoro va uning atroflarida yashovchi aholi soni 100 ming kishini balki undan ortiroq kishini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

**Muhokama va natijalar.** Somoniylar davrida ko'plab yirik hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lgan. Jumladan,

Buxoroning Zandona va Iskijkat qishloqlarida to‘qilgan bo‘z matolar, Samarqandning Vadori qishlog‘ida yaratilgan mato buyumlar Eron, Iroq va Hindistondan tashqari joylarga ham olib ketilgan va mashhur bo‘lgan. Buxorodan chetga qo‘y terisi, yog‘, soch moyi, mayin gazlamalar, joynamoz gilamlar, gilamlar, mehmonxonalarga yoziladigan matolar, egarlar, Taboristondan matolar, go‘sht va qovunlar, har xil shoyilar, ro‘mollar, uzangilar, suvluqlar, qayishlar, qozonlar, yong‘oqlar, Jizzaxdan jun gazlamalar va kiyimlar, Shoshdan a’lo sifatlari charm va charm mahsulotlari, o‘qdonlar, egarlar, chodirlar, chakmonlar, namoz gilamchalar, yelkapushtlar, kamonlar, ignalar, bo‘z, g‘alla va qaychilar chiqarilgan.[3] Arab geograflari Eloq viloyatini Shosh bilan Farg‘ona oralig‘ida joylashganligini qayd etadilar. Eloq X asrda kumush qo‘rg‘oshin qazib chiqarishning markazlaridan biri bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Eloqda Movarounnahrning uchinchi kumush zarbxonasi ochilgan. [4] Biri Samarcanda, yana boshqasi Buxoroda bo‘lgan. Eloq chekanı – ba‘zi manbalarda ea ”Shosh koni” [5] nomi bilan o‘sha davrda shuhrat topgan. O‘z vaqtida Xuroson noibi Ma‘mun ibn Xorun ar-Rashid nomidan zorb qilingan kumush dirhamlarning birida ”Shosh konida” 189-hijriy yilda (805-yil) zorb qilindi”, yana boshqa birida esa ”190-hijriy yilda (805-806-yillar)” degan so‘zlar bor[16]. Eloqdagi kumush konining nechog‘li katta ahamiyatga molik ekanligini tasavvur qilish uchun e’tiborni shunga qaratmoq joizdir, o‘sha vaqtarda kumushni muomalada juda ko‘p ishlatgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra o‘sha davrlarda Sharqiy Yevropaning o‘zida bironta ham kumush, qo‘rg‘oshin koni bo‘lImagen. Sharqiy Yevropadagi davlatlarda muomalada asosan somoniylar zorb etgan tangalar bo‘lgan. Movarounnahr xo‘jaligida temir qazib chiqarish ham katta o‘rin tutgan. Temir Usturshonaning ikki hududidan - Mink va Marsmandan qazib olingan. Temir rudasining bir qismi shu yerning o‘zida eritilgan va ishlatalgan, qolgan qismi esa Farg‘onaga olib ketilgan. Isfarada toshko‘mir qazib olingan, Farg‘onada neft borligi aniqlanib, undan harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Marsmandada har oyning boshida bir marta bozor ochilardi. Bu bozorga juda uzoq joylardan odamlar kelardi. Somoniylar davrida Movarounnahr xo‘jalik hayotida Xorazm katta o‘rinni egallagan. Xorazm chetga suvsar mo‘ynasi, oq suvsar mo‘ynasi, sassiqko‘zan mo‘ynasi, latcha mo‘ynasi, tulki, quyon va echki mo‘ynalari, sham, o‘q, oq terak po‘stlog‘i, uzun qalpoqlar, baliq yelimi, kanakunjut moyi, anbar, ot terisidan ishlangan chann, asal, yong‘oq, lochin, qalqonlar, qo‘ylar va sigirlar chiqarar edi. Ma‘luotlarga ko‘ra Xorazm bu buyumlarni bulg‘orlardan olganligi keltirib o‘tiladi.[5] Bulardan tashqari, Xorazm chet mamlakatlar bilan ko‘plab quruq mevalar, targ‘it movud, qand-qurs, gilamlar, kimxoblar, choyshablar, va qulflar, kamonlar, pishloq, bo‘za, baliq, qayiqlar va boshqa mahsulotlar bilan ham savdo qilardi. Somoniylar davrida Movarounnahrda ”Buyuk ipak yo‘li” orqali bo‘ladigan karvon savdosiga katta ahamiyat kasb etadi. Karvon savdosiga O‘rta Osiyo orqali Janubi-sharqiy Yevropa mamlakatlarini Sharq mamlakatlari, avvalo Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘lab turar edi. Old Osiyo davlatlarini Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘laydigan yo‘l eng gavjum va serqatnov karvon yo‘li bo‘lgan. Bu yo‘l Bag‘doddan boshlanib, Ramadon, Nishopur, Marv, Omul (Chorjo‘y), Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz (Jambul), Kulon (Lugovaya bekti), Marki, Bolosog‘un, Suyob, Issiqko‘lning janubiy qirg‘og‘i orqali o‘tib, Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga borar edi.[6] O‘rta Osiyodan Yevropaga olib boradigan yo‘Ining ahamiyati juda katta bo‘lgan. Lekin o‘sha davrda Xazar podsholigi bilan xalifa va bulg‘orlarning munosabatlari yaxshi

bo‘limganligi tufayli karvonlar Kavkaz va Xazarlar hududi orqali borish imkoniyatidan mahrum bo‘lganlar. Yo‘l endi O‘rta Osiyo orqali Mary, Buxoro, Qiyot, Urganch, Zamjan, Emba, Yoyiq (O‘rol), Samara, Kinol, Cheremshan daryolaridan o‘tib, so‘ng Bulg‘oriyaga borgan. Xorazmning o‘ziga kelganda u Xazar podsholigi bilan turli sohalarda savdo va madaniy aloqalar o‘rnatgan. Bu davrda savdo-sotiq ishlarida ko‘proq cheklar qo‘llanilgan. Cheklarni ko‘rsatish orqali mo‘ljaldagi joydan chekka to‘langan miqdordagi pulni olish tartibi mavjud bo‘lgan. Savdo asosan ayirboshlash yo‘li bilan olib borilgan, pul esa hisob-kitob birligi vazifasini o‘tagan. Karvonlar o‘tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroysiylar qurilgan. Karvonsaroysiylarda savdogarlar, ularning xizmatkorlari, ot-ulovlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan. Zarur hollarda karvonsaroysiylarning o‘zida ham savdolar qilingan. Odamlar bu yerga savdo qilish uchun kelib, boshqa shaharlar va mamlakatlardagi tovar mollarning qiyamatlarini ham bilib olish imkoniytlariga ega bo‘lganlar. Karvonlar bir necha o‘ndan bir necha mingga qadar ot va tuyalardan iborat bo‘lgan. Ularni qo‘riqlab boruvchi maxsus qurolli soqchilari mayjudligi keltirib o‘tilgan. Har bir karvonda tilmochilar olib yurilgan. [7] U paytda karvonlarga faqat savdo uyushmasi deb qaramaganlar. Karvon tarkibida savdogarlardan tashqari hunarmandlar, olimlar, rassomlar, san’atkorlar, ustalar, sayyoohlari va elchilar ham bo‘lardi. Savdo karvonlariga, odatda, elchilik topshiriqlari ham berilardi. Jumladan, 922-yilda xalifa Muqtadirdan bulg‘or podshosiga yuborilgan karvon butun boshli bir elchilar desa bo‘ladi. Karvonda mirzalik-kotiblik vazifasini bajargan Ahmad ibn Fadlanning yozib qoldirgan ma‘lumotlari qaraganda bu karvon savdogarchilik ishlaridan tashqari yana elchilik, harbiy va diniy vazifalarni ham ado etgan. Savdo karvonlari ”Buyuk ipak yo‘li” orqali Xitoydan ipak va ipak matolari, kimxob va shoyi, oltin va kumush aralashtirilib to‘qilgan zarbof matolarni Movarounnahrga olib kelganlar. O‘rta Osiyodan Xitoya esa shisha-oynalar, otlar olib borib sotganlar. Sharqiy Yevropa bilan olib borilgan savdoda Xorazm muhim o‘rinni egallagan. IX-X asrlardagi karvon savdosiga Xorazm bilan ikki yirik savdo markazi - xazarlar va bulg‘orlar o‘rtasida olib borilgan. Bu davrda Itil va Bulg‘or Volga bo‘yidagi savdo markazi sifatida shuhrat qozongan. Itil shahri ikki qismdan iborat edi. Shaharning g‘arbiy qismi Itil, sharqiy qismi esa Hazorona deb atalgan va u savdo markazi vazifasini bajargan. Hazorona aholisining ko‘philik qismini xorazmliklar tashkil qilgan. Ibn Havqalning ta‘kidlashicha, musulmonlar shahri bo‘lgan Hazoronda 30 ta masjid bo‘lgan. Ma‘sudiy esa Hazorona xoqonining qo‘shinlari asosan xorazmliklardan bo‘lganligini yozadi. Ibn Havqal xoqonlik qo‘shinlari tarkibida 12 ming xorazmlik bo‘lganligiga alohida e’tibor beradi. Volga bo‘yining O‘rta Osiyo va xususan Xorazm bilan savdosida bulg‘orlar ham katta o‘rin tutgan. Sharqiy Yevropaga O‘rta Osiyodan zorb etilgan dirhamlar, sholi, ip gazlama, jun va boshqa matolalar olib kelganlar. Xorazmga esa Sharqiy Yevropadan har xil terilar, mo‘ynalar, teri oshlashda ishlatalidigan po‘stloq, qoramol, asal, qullar va bandilar olib kelingan.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, Somoniylar davrida O‘rta Osiyo xususan Movarounnahr, Xuroson va Xorazm shaharlarining aholisi ichki va tashqi savdoda juda faol ishtirot etadilar. Buning naijasida tashqi savdo-sotiq bilan bir qatorda ichki savdo-sotiq ham rivojlanadi. Aholining deyarli barcha qatlamlari ijtimoiy hayotda to‘la-to‘kis yashaganlar. Bularning barchasi Somoniylar davrida nafaqat mamlakat boshqaruviiga balki aholining turmush tarziga ham alohida e’tibor berganligining yorqin dalilidir.

#### ADABIYOTLAR

- Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т.: Фан. 1996. Б. 120.
- Нематов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.

3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т.: Цюрих. 2005. Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. В. 511
5. Homidiy H. Daholar davrsasi. –Т.: O'qituvchi. 2011. В. 352.
6. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
8. Is'hoqov M va Alimova R. Arxivshunoslik. O'quv qo'llanma.- Т.;2017. В. 184.
9. Уватов У. Буюк юрт алломалари. –Т.; O'zbekiston. 2020. Б. 426.
10. Шомуродова С. Сомонийлар даври шоирлари. //Мозийдан садо. 2. (85). 2020. -Б. 21.
11. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. –Т.:Donishmand ziyosi. 2021.В. 624.
12. <https://milliycha.uz/xiroj/>.
13. <https://kompy.info/jizzax-davlat-pedagogika-instituti-tarix-fakultetiv2.html?page=12>.
14. <http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/223-buxoro-tarixi-abu-bakrmarshaxiy.html>.



**Alisher EGAMBERDIYEV,**  
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: alisheregamberdiyev@mail.ru

TKXU professori, PhD, A.T.Zamonov taqrizi asosida

## THE HISTORY OF ABDULAHAD TURA'S APPOINTMENT AS HEIR OF THE BUKHARA EMIRATE

### Annotation

The article analyzes the changes that occurred in the crown system of the Bukharan Emirate in the second half of the 19th century, the appointment of the emir's prince Abdulahad Tura as the heir to the throne by the emir Muzaffar, as well as the confirmation of the new crown prince of the emirate by the Russian emperor Alexander III. In the process of writing the article, extensive use was made of local sources and materials published in the empire's periodicals of that time, which detailed Abdulahad Tura's journey through the central cities of the empire in 1883 to participate in the coronation ceremony of the Russian Emperor.

**Key words:** Amir Muzaffar, Abdulahad Tura, Alexander III, appointment as heir apparent, successor to the throne, coronation ceremony, Moscow, St. Petersburg, Orenburg, official reception ceremony, diplomatic gifts.

## ИСТОРИЯ НАЗНАЧЕНИЯ АБДУЛАХАДА ТУРЫ НАСЛЕДНИКОМ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

### Аннотация

В статье проанализированы сведения об изменениях, произошедших в системе престолонаследия Бухарского эмирата во второй половине XIX века, назначении эмиром Музффара наследником престола принца эмирата Абдулахада Тура, а также утверждении нового наследника эмирата Российской императором Александром III. В процессе написания статьи широко использовались местные источники и материалы, опубликованные в периодических изданиях империи того времени о путешествии Абдулахада туры по центральным городам империи для участия в коронации императора России в 1883 году.

**Ключевые слова:** Эмир Музффар, Абдулахад тур, Александр III, назначение на престол, наследник престола, коронация, Москва, Петербург, Оренбург, официальный прием, дипломатические подарки.

## ABDULAHAD TO'RANING BUXORO AMIRLIGI TAXT VORISI ETIB TAYINLANISHI TARIXI

### Annotatsiya

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi valiahdlik tizimida yuz bergan o'zgarishlar, amirlik shahzodasi Abdulahad to'ranning amir Muzaffar tomonidan taxt vorisi etib tayinlashi, shuningdek, amirlik yangi valiahdining Rossiya imperatori Aleksandr III tomonidan tasdiqlanishiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Maqolani yozish jarayonida Abdulahad to'ranning 1883-yilda Rossiya imperatori toj kiyish marosimida ishtirok etish uchun imperiyaning markaziy shaharlari bo'ylab amalga oshirgan sayohati haqidagi mahalliy manbalar va imperiyaning o'sha vaqtdagi davriy nashrlarida e'lon qilingan materiallardan keng foydalilanigan.

**Kalit so'zlar:** Amir Muzaffar, Abdulahad to'ra, Aleksandr III, valiahdlikka tayinlash, taxt vorisi, toj kiyish marosimi, Moskva, Peterburg, Orenburg, rasmiy qabul marosimi, diplomatik sovg'alar.

**Kirish.** Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng Buxoro amirligida yuz bergan bir qator siyosiy o'zgarishlar singari amirlik taxt vorisining imperiya siyosiy maqsadlari va mustamlakachilik manfaatlariga mos kelishi valiahd tanlashdagi asosiy omillardan biriga aylanib qoldi. Valiahdlik tizimida o'zgarishlar yuz berib, amir tomonidan taxt vorisligiga munosib ko'rilgan shahzoda Peterburgga yuborilishi, yangi valiahdning imperator qabulida bo'lishi, imperatorga ma'qul kelsa, uning valiahdlik maqomi tan olinib, tasdiqlanishi siyosiy odatga aylandi. Shu tarqa, amir Muzaffar davridan boshlangan bu jarayon keyingi amirlar davrida ham davom ettirildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, amir tayinlagan valiahdlarni Rossiya imperatori qabuliga yuborish uchun qulay siyosiy fursatni tanlashga ham alohida ahamiyat qaratildi. Jumladan, 1883-yilda amir Muzaffar tomonidan taxt vorisi etib tayinlangan Abdulahad to'ranning valiahd shahzoda sifatidagi ilk tashrifi Rossiya imperatori Aleksandr III va uning rafiqasi Mariya Fyodorovnaning toj kiyish marosimi doirasida amalga oshirildi. Abdulahad to'ranning mazkur diplomatik tashrifi Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi

o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tarixida ham muhim o'rinn tutadi. Shu sababli ham, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi valiahdlik tizimida yuz bergan transformatsiyalarini o'rganish, mazkur jarayonda Buxoro shahzodasi Abdulahad to'ranning Aleksandr III ning toj kiyish marosimida valiahd sifatidagi ishtirokini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mang'itlar sulolasiga mansub Buxoro amirlari, jumladan, amir Abdulahadxonning amirlik taxtini egallaguniga qadar bo'lgan davrdagi shahzodalik va valiahdlik yillari tarixi nisbatan kam o'rganilgan mavzularidan biri hisoblanadi. O'zbek tarixshunosligining sovet davri va mustaqillik yillarida, shuningdek, xorij tarixshunosligida mazkur mavzuga oid alohida tadqiqot olib borilmagan, maxsus ilmiy asar ham yaratilmagan bo'lsa-da, Abdulahad to'ranning valiahd etib tayinlanishi hamda Rossiya imperiyasiga taxt vorisi sifatidagi ilk tashrifi tarixi ayrim tadqiqotlar doirasida qisman tadqiq etilgan. Jumladan, S.I.Inoyatov, H.H.To'rayev, O.Hayitova, A.A.Odilov, R.E.Xoliqova, O.A.Klichev, D.M.Jamolova, P.R.Ravshanov kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarda

Abdulahad to‘raning taxt vorisi etib tayinlanishi tarixiga e’tibor qaratganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy hamda muammoviy-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

**Tahsil va natijalar.** Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi istilosidan so‘ng ham o‘z milliy davlatchilik an‘analarini saqlab qolgan bo‘lsa-da, o‘ziga tegishli bo‘lgan katta hududlardan mahrum bo‘ldi, davlat boshqaruvida ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan imperiyaning ta’siriga tushib qoldi. Shunday vaziyatda, garchi amir Muzaffarning o‘zi Rossiya imperiyasi poytaxti Peterburg shahriga yoki imperiyaning boshqa markaziy shaharlariga tashrif buyurmagan bo‘lsa-da, siyosiy qaramlikning dastlabki yillardanoq uning bir qancha o‘g‘illari, nufuzli amaldorlari imperator xonadoni vakillari bilan yaqin munosabat o‘rnatish maqsadida rasmiy tashriflarni amalga oshirganlar.

Manbalarda amir Muzaffarning o‘ndan ortiq farzandlari nomi sanalsa-da, ularning aniq soni turlicha keltiriladi. Amir Muzaffarning to‘ng‘ich farzandi, bиринчи taxt vorisi bo‘lgan Abdumalik to‘ra (1848–1909) va otasi o‘rtasida 1868-yilda yuzaga kelgan keskin harbiy-siyosiy kelishmovchilikdan so‘ng, u 1871-yilda mazkur maqomdan rasman mahrum bo‘ladi [1]. 1869-yil noyabrda Rossiya imperatoriga katta sovg‘alar bilan yo‘lga chiqqan faxriy elchilar guruhi tarkibida Peterburgga yuborilgan, imperator Aleksandr II qabulida bo‘lib qaytgan Abdulfattoh to‘ra (1857–1869) navbatdagi taxt vorisi sifatida ko‘rilib [2], Abdumalik to‘radan so‘ng u merosxo‘r bo‘lishi mo‘ljallangan edi. Biroq amir Muzaffar Abdulfattoh to‘rani Buxoro amirligining taxt vorisi sifatida tasdiqlashni imperatordan iltimos qilmochchi bo‘lib yurgan vaqtda mazkur shahzoda ham to‘satdan vafot etadi. Bundan tashqari, amir Muzaffar o‘zining ikkinchi o‘g‘li sayyid Nuriddinxon (1851–1878)ni ham taxt vorisi qilish niyatida bo‘ladi, biroq shahzodaning bevaqt o‘limi sabab mazkur reja ham amalga oshmaydi [3].

Rossiya imperiyasi tashqi ishlari vazirligi amirlikda ancha vaqtidan buyon rasmiy taxt vorisi yo‘qligi sabab 1882-yilda xasta amir Muzaffarga o‘g‘illaridan biri bo‘lgan Abdulahad to‘rani valiahd etib tayinlashni tavsija etadi [4]. Natijada shu yildan boshlab Karmana begi Abdulahad to‘ra amirlik taxtining qonuniy vorisiga aylanadi. Tarixchi Mirza Abdulazim Somiy Abdulahad to‘raning taxt vorisi etib tayinlanishini amir Muzaffarning Moskvaga bormaslik uchun amalga oshirgan tadbirni sifatida talqin etadi. Jumladan, Somiyning yozishicha, Aleksandr II ning vafot etib, uning o‘g‘li Aleksandr III ning taxtga o‘tirganini eshitgan amir Muzaffar o‘zini Moskvada bo‘lib o‘tadigan toj kiyish marosimiga taklif qilib qolishlari mumkin deb hisoblaydi hamda buning oldini olish uchun Abdulahad to‘rani taxt vorisi etib tayinlaydi [5]. Shu orqali amir Muzaffar Rossiya imperiyasiga o‘zi bormasdan, o‘z nomidan valiahd shahzoda Abdulahad to‘rani yubormoqchi bo‘ladi.

Aslida, Abdulahad to‘ra amir tomonidan rasman taxt vorisi sifatida tayinlanganiga qaramay, siyosiy qaramlik sabab uning mazkur unvoni Rossiya imperatori tomonidan ham tan olinishi kerak edi. O‘tkazilishi kutilayotgan toj kiyish marosimi esa mazkur ishni amalga oshirish uchun qulay siyosiy fursat edi. Shuning uchun ham amir Muzaffar yangi valiahdni Rossiya imperiyasiga yuborib, uning imperator tomonidan amirlikning taxt vorisi sifatida tasdiqlanishiga erishmoqchi edi. Shu bois Amir Muzaffar Buxoro elchilar guruhi orqali Aleksandr III ga xat ham yuboradi. Xatda imperatorga toj kiyishi munosabati bilan tabrik yo‘llash bilan bir qatorda, otasining vafoti sabab ta‘ziya ham izhor etadi. Bundan tashqari, maktubda Abdulahad to‘raning Buxoro amirligi valiahd shahzodasi etib tayinlangani qayd etilib, bunga imperatorning munosabati so‘raladi.

Amir Muzaffar betobligi sabab Moskvada bo‘lib o‘tadigan tadbirlarda ishtirot eta olmasligini rasman bildirganidan so‘ng uning topshirig‘iga ko‘ra taxt vorisi Abdulahad to‘ra amirlikning uch nafar yuqori martabali amaldorlari hamda boshqa vakillar hamrohligida imperatorning toj kiyish marosimida qatnashish uchun yo‘lga chiqadi. Buxoro elchilar guruhi 17-mart kuni Turkiston general-gubernatorligi tasarrufidagi Samarcand shahriga yetib keladi. Samarcanddan general-gubernatorlik markazi bo‘lgan Toshkent shahriga kelgan elchilar bir muddat shu yerda qolib, 24-mart kuni Toshkentdan Moskva safariga otlandi [6].

Abdulahad to‘ra 18-aprel kuni Orenburg gubernyasining Orsk shahriga yetib keladi. Bu yerda biroz dam olgach, keyingi kuni ertalab Orskdan Orenburg shahriga qarab yo‘lga chiqadi. Valiahd shahzoda Orenburgga 21-aprel kuni yetib keladi va o‘zi uchun ajratilgan turarjoyga joylashadi. Buxoro elchilar guruhiga rahbarlik qilayotgan 25 yoshli shahzoda va uning 16 kishidan iborat mulozimlari shaharga ikki chaqirim qolganda tantanali kutib olinadi [7]. Abdulahad to‘ra Orenburgga kelish jarayonida shamollab qolgani sababli salomatligini to‘liq tiklab olish uchun biroz muddat Orenburgda qoladi. U mazkur shaharda turgan vaqtda bu yerdag‘i bir qancha kishilarga qimmatbaho sovg‘alar in’om etadi.

Buxoro taxt vorisi Abdulahad to‘ra Orenburg shahrida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II bilan uchrashadi. Buxoro shahzodasi va Xiva xoni safar davomida birkalikda sayohat qilishgan bo‘lib, imperiyadagi rasmiy tadbirlar, qabullar, uchrashuvlar va turli shaharlarga uyuştirilgan tashriflarda ham birga qatnashishgan. Mazkur rasmiy safar Xiva xonining Buxoro amirligi valiahd shahzodasi – bo‘lajak amir haqidagi fikrlari shakllanishi, xon va amirzoda o‘rtasidagi iliq munosabatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lgan. Har ikki yuqori martabali mehmon 2-may kuni kechqurun rus amaldorlari hamrohligida Orenburgdan Moskvaga pochta tashiydigan poyezdda, maxsus salon-vagonlarda jo‘nab ketishadi.

Buxoro elchilar guruhi tarkibida Abdulahad to‘radan tashqari amir Muzaffarning Peterburgdagi Pajlar korpusi 6-sinfida tahsil olayotgan o‘g‘li said Mir Mansur ham ishtirot etadi. U o‘sha vaqtda Peterburgda tahsil olayotganligi sababli otalig‘i Abdulvaso to‘qsabo hamrohligida 4-may kuni Moskvaga yetib keladi [8]. Buxoro va Xiva vakillari esa 7-may kuni Moskvaga yetib boradilar [9]. Abdulahad to‘ra boshchiligidagi amirlik g‘aznachisi Durbin inoq, kotib Mirzo Mir Rajab sudur, maslahatchi Xoja Abdul o‘roq, Ostonaqlbek [10] va Buxoro amirligining Toshkentdagi elchisi Rahmatullobiy hamda boshqalardan iborat Buxoro elchilar guruhi Moskvada rasmiy kutib olinadi. Yuqori martabali mehmonlar saroy vazirligi tomonidan ajratilgan maxsus qarorgohga joylashtiriladi.

Toj kiyish marosimining asosiy tadbirlari 15-may kuni Moskva Kremlidagi Uspenskiy soborida o‘tkaziladi. O‘sha kuni, marosim tadbirlari niyoyasiga yetgach, tushlikdan so‘ng Abdulahad to‘ra va uning ukasi Mansur to‘ra leyb-gvardiya ataman polki polkovnigi Sulton Valixon hamrohligida imperator Aleksandr III qabulida bo‘lishadi [11]. Rasmiy qabuldan so‘ng Abdulahad to‘ra otasi amir Muzaffarga imperator bilan kechgan suhbat tafsilotlari haqida tezkor telegramma yuboradi [12]. So‘ngra Davlat Kengashi raisi, buyuk knyaz Mixail Nikolayevich va gersog Yevgeniy Maksimilianovich Lextenbergskiy mehmonlarni ziyofatga taklif etadi, buyuk knyaz Nikolay Nikolayevich esa tanavvu vaqtida Buxoro shahzodalarini bilan suhbatlashadi.

Moskvadagi rasmiy tadbirlar niyoyasiga yetgach, Abdulahad to‘ra boshchiligidagi Buxoro elchilar guruhi imperiya poytaxting diqqatga sazovor joylarini ko‘zdan kechirish uchun 1-iyun kuni Moskvadan Peterburgga jo‘nab ketishadi. Ular 2-iyun kuni Peterburg shahriga yetib kelishadi

hamda "Grand Hotel" mehmonxonasiga joylashadilar. Buxoro shahzodalari 11-iyun kuni Peterburgdan Kronshtadt port-shahriga tashrif buyurishadi. Oliy darajadagi mehmonlarni olib kelish uchun Kronshtadtdan g'ildig'akli "Peterburg" paroxodi yuboriladi [13]. Rasmiy uchrashuvlar va shahar bo'ylab sayohat va nihoyasiga yetgach, Buxoro elchilar guruhi Kronshtadtdan Oranienbaum saroy-bog' majmuasiga suzib ketishadi.

Buxoro shahzodalari o'z mulozimlari bilan birgalikda 12 – 13-iyun kunlari Petergofda mehmon bo'lishadi. 13-iyun kuni valiahd shahzoda Abdulahad to'ra amir Muzaffar nomidan imperator Aleksandr III ga tuhfa etish uchun olib kelgan, bir muddat Qishki saroyning Pyotr zalida namoyish etilgan turli sovg'alarni imperatorga taqdim etish uchun Petergofdag'i Katta saroyma keladi [14]. Sovg'alar uchta uzun stolga joylashtirilgan bo'lib, ular orasida turli xil matolar, gilamlar, to'nlar (to'nlardan biri to'liqligicha marvarid qo'shib tikilgan edi), imperator uchun qimmatbaho toshlar qadalgan jig'ali bosh kiyimlari kabi ko'plab noyob buyumlar bor edi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Aleksandr III ning qabullarida bo'lib o'tgan o'zaro suhbatlar natijasida Abdulahad to'ra Rossiya imperatorida yaxshi taassurot uyg'otadi. Imperator Buxoro amirligining valiahdi Abdulahad to'rani kelgusida amirlilik taxtini egallashga munosib nomzod deb hisoblaydi. Albatta, Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi siyosiy ta'sirining taqdiri ko'p jihatdan kelgusida taxtga o'tiradigan vorisiga ham bog'liq edi. Shu sababli ham imperator va imperiyaning siyosiy doiralarini rasman o'z protektorati, amalda esa siyosiy mustamlakasi bo'lgan Buxoro amirligining valiahd shahzodasiga katta e'tibor qaratadilar. Imperator Aleksandr III toj kiyish marosimi nihoyasiga yetishi munosabati bilan Buxoro shahzodasi Abdulahad to'rani II darajали Muqaddas Stanislav ordeni bilan ham mukofotlaydi [15].

Belgilangan barcha rasmiy tadbirdilar nihoyasiga yetgach, Abdulahad to'ra 1-iyul kuni Peterburgda Turkiston general-gubernatori, general-leytenant Mixail Chernyayev bilan uchrashib, 2-iyul kuni Nikolayev temiryo'li orqali Orenburg shahriga qarab yo'lga chiqadi [16]. Shahzoda temiryo'l bekatida yig'ilganlarga imperator va rus xalqi tomonidan ko'rsatilgan mehmondorchilik uchun minnatdorchilik birdirib, matbuot sahifalarida qayd etilishicha, Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari mustahkam ekaniga aminligini bildiradi [17]. Jo'nab ketishidan oldin shahzodaga Turkiston general-gubernatori adyutatanti Alabin general-leytenant Mixail Chernyayev nomidan kumush serviz sovg'a qiladi.

"Оренбургский листок" gazetasida qayd etilishicha, shahzoda Abdulahad to'ra Orenburg shahriga 6-iyul kuni yetib keladi. 8-iyul kuni Orenburgning bosh masjidida juma namozini ado etib, shu kuni kechqurun Orenburg savdogarlarining taklifiga binoan shahar dumasida o'tkazilgan iftorlikda qatnashadi. Keyingi kuni Orenburgdan yo'lga chiqqan Abdulahad to'ra 11-iyul kuni ertalab Orskka yetib boradi, bir necha kundan so'ng esa Buxoroga qaytib keladi. Biroq amirlik valiahdi Abdulahad to'raning qariyb to'rt oy

davom etgan mazkur safari shu bilan nihoyasiga yetmaydi. Peterburgdan qaytgan shahzoda 24-iyul kuni Turkiston general-gubernatorligi markazi Toshkent shahriga yetib keladi [18].

Toj kiyish marosimidan qaytgan valiahd shahzoda general-gubernatorlik harbiylari tomonidan tantanish ravishda kutib olinadi va zambaraklardan to'plar otiladi. Harbiy yig'ilishda valiahd shahzoda Abdulahad to'ra sharafiga hashamatli ziyofat tashkil etiladi [19]. 27-iyul kuni Toshkentdan chiqqan Buxoro elchiligi Samarcandga kelib to'xtaydi. Buxoro amiri Muzaffar Shahrisabzda ikki oy turganidan so'ng 28-iyun kuni bu yerdan Qarshiga kelgan edi. Abdulahad to'ra Toshkentdan Samarcandga kelgan vaqtida otasi hali ham Qarshi shahrida bo'lganligi sababli 31-iyul kuni Samarcanddan Qarshiga otlanadi [20]. O'sha yerda otasi bilan uchrashib, o'zining valiahd sifatidagi ilk rasmiy safari tafsilotlari haqida batasfil ma'lumot beradi.

1883-yil 20-avgustda Turkiston general-gubernatorligiga telegramma yuborilib, Abdulahad to'raga Buxoro valiahdi etib tayinlangani munosabati bilan Rossiya imperatori Aleksandr III tomonidan sovg'a qilingan faxriy oltin shamshirni topshirish uchun Toshkentga general-mayor, knyaz Ferdinand Vitgenshteynning kelishi haqida xabar beriladi [21]. Turkiston general-gubernatori Mixail Chernyayev 1883-yil 12-oktabrda Zarafshon okrugini ko'zdan kechirish uchun Toshkentdan Samarcandga jo'nab ketadi. O'sha kuni knyaz Ferdinand Vitgenshteyn imperator yuborgan faxriy shamshirni topshirish uchun Kattaqo'rg'onдан Buxoroga yuboriladi [22].

Knyaz bilan birgalikda amirlik poytaxtiga sayyoh sifatida fransuz harbiy agenti baron de Serme hamda shveysariyalik sayohatchi Genrix Mozer ham yo'l oladi. Amir Muzaffar mazkur elchilar guruhi generallik epoletlari taqilgan mundir kiyib, Rossiya imperiyasining I darajali Muqaddas Anna va Buxoro amirligining Buxoro yulduzi ordenlarini taqqan holda qabul qiladi [23]. Knyaz Ferdinand Vitgenshteyn amirlikning valiahd shahzodasi Abdulahad to'ra bilan uchrashuvlar o'tkazib, unga imperatorning sovg'asini topshiradi. Mazkur uchrashuvdan so'ng Abdulahad to'raning Buxoro amirligi taxt vorisi maqomining Rossiya imperatori Aleksandr III tomonidan tasdiqlanishi jarayoni rasman nihoyasiga yetadi.

**Xulosa va takliflar.** Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini bosib olib, o'z siyosiy manfaatlari dorasiga kiritgach, amirlikda taxt vorisini tayinlash masalasi ham bevosita imperatorlar aralashuvni bilan hal bo'ladigan masalaga aylandi. Amir tomonidan tayinlangan taxt vorisining Rossiya imperatori qabulida bo'lishi, tasdig'idan o'tishi siyosiy odat tusiga kirdi. Imperator Aleksandr III ning toj kiyish marosimi arafasida Buxoro amirligining taxt vorisi sifatida tayinlangan Abdulahad to'ra imperiyaning markaziy shaharlari bo'lib, u yerdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda harbiy rivojlanishni o'z ko'zi bilan ko'rdi, uning dunyoqarashida o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, uning siyosiy xatti-harakatlari, fikrlashi imperiya manfaatlariga mosligi imperator tomonidan Buxoro amirligi valiahdi sifatida tasdiqlanishiga imkon berdi.

## ADABIYOTLAR

- Одилов А.А. Бухоро амирлигига миллый озодлик харакатлари тарихи (Абдулмалик тўра бошчилигидаги халқ озодлик харакати мисолида). Тарих фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2003. 180-б.
- Иноятов С., Тўраев X., Ҳайитова О. Амир Абдулаҳадхон даврида Кармана. – Тошкент: Шарқ, 2004. 16-б.
- Холиқова Р.Э. Россия – Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: O'qituvchi, 2005. 182-б.
- Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. 628-б.
- Мирза Абдалазим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государств) / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1962. – С. 115.
- Телеграмы // Русский Инвалидъ. 27 марта 1883 года. № 68.
- Оренбургская старина // Вечерний Оренбург. 11 июля 2006 года. № 28.

8. Телеграммы // Петербургский листок. 6 мая 1883 года. № 102.
9. Москва // Газета А. Гатцука. 7 мая 1883 года. № 18. Прибавление.
10. Жамолова Д. Бухоро амирлигига жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Muhammarr, 2020. 38-б. O'sha muallif. Бухоро амири Абдулаҳадхон ва унинг сиёсий фаолияти // O'zbekiston tarixi. 2018 йил 1-сон. 33-б.
11. Москва // Газета А. Гатцука. 19 мая 1883 года. № 21. – С. 7.
12. Азиатские гости въ Москвѣ // Петербургская газета. 21 мая 1883 года. № 137.
13. Посыщеніе Кронштадта азіятскими гостями // Петербургская газета. 15 июня 1883 года. № 161.
14. Вѣсти. Петергофъ // Газета А. Гатцука. 18 июня 1883 года. № 27.
15. Изъ дня въ день // Петербургская газета. 20 июня 1883 года. № 166.
16. Изъ дня въ день // Петербургская газета. 3 июля 1883 года. № 179.
17. Вѣсти. Петербургъ // Газета А. Гатцука. 9 июля 1883 года. № 30.
18. Телеграмы // Русский Инвалидъ. 26 июля 1883 года. № 161.
19. Вѣсти. Ташкентъ // Газета А. Гатцука. 30 июля 1883 года. № 33.
20. Вѣсти. Самарканѣ // Газета А. Гатцука. 6 августа 1883 года. № 34.
21. Ўроков Д.Ж. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистоннинг ташки алоқаларини ёритувчи манбалар (ЎзРМДА хужжатлари асосида) // ЎзМУ хабарлари. 2008 йил 2-сон. 40-б.
22. Вѣсти. Ташкентъ // Газета А. Гатцука. 15 октября 1883 года. № 44.
23. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения. Том II, часть I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – С. 420.